O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI


**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**FILOLOGIYA FAKULTETI**

**O’ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI**


# “TILSHUNOSLIKKA KIRISH”

**fanidan ma’ruza matni**


**Tuzuvchi - Xoliyorov X.X.**


**Ma’ruza matni 2008 yil ___avgusda o’zbek tilshunosligi kafedrdasining 1-sonli yig’ilishida tasdiqlangan**

**Kafedra mudiri B.Umurqulov**


**Termiz - 2008**

**Taqrizchilar:**

Filologiya fanlari nomzodi, dosent S.Mahmatqulov.
Filologiya fanlari nomzodi, dosent B.Yoriev.

Mas’ul muharrir: Filologiya fanlari doktori, professor
S.Karimov.

Ushbu matnda “Tilshunoslikka kirish” fani asoslari haqidagi umumiy masalalar baYon etilgan. Mazkur fanga oid darslik va ko’rsatmalar asosida tayYorlandi.

Filologiya fakulteti o’zbek tilshunosligi kafedrasining 2002 yil 20 sentyabr majlisida tasdiqlangan.

## So’z boshi

“Tilshunoslikki kirish” kursi tilshunoslik fani haqida dastlabki (asos) ma’lumotlarni beradi.

“Tilshunoslikka kirish” kursi uchun o’quv dasturida ajratilgan soatlarning asosiy qismi ma’ruza darslariga mo’ljallangan. Ma’ruzalar “Tilshunoslikka kirish” predmeti haqidagi darslik, o’quv qo’llanmalari hamda ma’lum pedagogik tajribalar asosida tayYorlangan bo’lib, til ilmi haqidagi muhim jihatlarni o’rganishga qaratilgan. Ma’ruza matnlari SamDU tilshunoslik ilmiy-uslubiy fikrlarini hisobga olgan holda, talabalarning fikrlash qobiliyatlarini va manbalarning kam ekanligini e’tiborga olgan holda tuzildi.

Bu matn universitet filologiya va xorijiy tillar fakultetining 1-kurs studentlariga mo’ljallangan.

## 1-ma’ruza:

# KIRISH. «TILSHUNOSLIKKA KIRISH» FANINING PREDMETI, MA+SADI VA VAZIFALARI
## (2 soat)
## Reja :

1. Tilshunoslik fanining predmeti va vazifalari.
2. «Tilshunoslikka kirish» kursining mundarijasi.
3. Til va nutq.
4. Til ramzlar (znak) sistemasi ekanligi.
5. Til va jamiyat. Sotsiolingvistika.
6. Tilning asosiy stilistik (uslubiy) qatlamlari.
7. Tilning tarixiy o'zgaruvchanligi. Sinxroniya va diaxroniya.

***Tayanch so'zlar va iboralar:*** naturalizm, psixologizm, logizm, sosiologizm, strukturalizm, Yosh grammatikachilar (maktablar va oqimlar), ishora-znak, antinomiya metodi, til, nutq, tafakkur, sinxroniya, diaxroniya, strukturual lingvistika, substansiya, ekstralingvistika, intralingvistika, komparalingvistika, nutq fiziologiyasi va akustikasi, til psixologiyasi, til falsafasi, etnolingvistika, psixolingvistika, sosiolingvistika, antropologik lingvistika, generativ lingvistika, amaliy lingvistika, mentalingvistika (metalingvistika), matn, vaziyat, fonologiya, leksikologiya, grammatika, qiYosiy-tarixiy tilshunoslik, areal tilshunoslik, tipologiya-universal tilshunoslik, xususiy tilshunoslik, nazariy va amaliy tilshunoslik, metodologiya, til sistematikasi, konkret tillar, kategoriya, til kategoriyalari, poliglot, terminologiya, injener tilshunoslik, tilning ijtimoiy vazifasi, til sistemasi, kommunikativ vazifa, ekspressiv funksiya (vazifa), akkumulyativ funksiya, gnoseologik funksiya, frazeologizmlar, nominativ birlik, predikativ birlik, struktura birliklari, aloqaning texnik vositalari, tovushli Yozuv, Yozuv qo'l alifbosi va ko'rlar alifbosi, kombinasiya, signalizasiya, telegraf alifbosi, Morze alifbosi, ilmiy simvolika, simvol tushunchasi, til qurilishi, til mexanizmi, tilning tabiati, tilning ijtimoiy mohiyati, tilning evolyusiyasi, lu\at tarkibi, til va tafakkur, so'z birikmalari, dialektik birlik, logika (mantiq), grammatik kategoriya, logik kategoriya, predikat sistema (tizim), struktura, dinamik hodisa, til elementlari, yaruslar, fonetik—fonologik yarus, lu\at yarusi, grammatik yarus, nutq organlari, fikr almashish jaraYoni, akustik xususiyatlar, fiziologik xususiyatlar, fonologiya, so'z va predmet, so'z va tushuncha, leksikografiya, murakkab sintaktik butunlik, abzas, matn, morfologiya, sintaksis, morfema, so'z, gap.

1. Til kishilik jamiyati mahsulidir. Tilsiz hech bir voqelik va hodisani, insonning tabiatda, jamiyatda tutgan o'rni, jamiyat taraqqiYoti Yo'llarini bilish, o'rganish mumkin emas.

**Tilshunoslik** Yoki til bilimi (lingvistika) til haqidagi mustaqil va aniq fan bo'lib, tilning kelib chiqishi, tarixiy taraqqiYot jaraYonlari va qonuniyatlarini ilmiy asosda o'rganadi. Bu fan muayyan va umumiy tilshunoslik bilimlaridan iborat.

Muayyan (xususiy) tilshunoslik ma'lum bir tilning lu\at tarkibi, fonetik tizimi va grammatik qurilishi taraqqiYot Yo'llari hamda qardosh tillarga munosabatini ilmiy asosda sinchiklab o'rganadi va shu Yo'l bilan tilning lu\at boyligi, fonetikasini sinchiklab tekshiradi, ilmiy grammatikasini yaratib beradi.

Umumiy tilshunoslik esa umuman tilning kelib chiqishi, ijtimoiy mohiyatini, jamiyatdagi o'rni va vazifasini, taraqqiYot Yo'lini til bilan tafakkurning bir — biriga uzviy bo\liqligini, tilning o'zaro munosabatini o'rganadi hamda tilshunoslikning tekshirish metodlarini yaratadi. Umumiy tilshunoslik ayrim tilshunoslikni, bir guruh tilshunoslikni va qardosh tilshunoslikning o'rganish, tekshirish natijasida aniqlangan til hodisasini, til dalillarini umumlashtirib, ilmiy xulosalar chiqaradi va shu asosda til qonuniyatlarini aniqlab beradi.

Ko'rinadiki, tilshunoslik inson tilini o'rganadigan mustaqil fandir. Tilshunoslik dastlab, amaliy ahamiyatgagina ega bo'lgan fan sifatida yuzaga kelgan bo'lsa, hozir nazariy xarakterdagi fanga aylandi.

**2. «Tilshunoslikka kirish»** kursi tilning boshqa hodisalar ichida tutgan o'rni, tuzilishi va tilning taraqqiy etish qonuniyatlari haqidagi, umuman til xaqidagi fanning asosiy tushunchalarini o'rganadi. Bu kursning yana bir muhim vazifasi shundan iboratki, tilshunoslik fanida qo'llaniladigan terminlar, tushunchalar tizimi bilan tanishtiradi. SHuning uchun bu kurs umumiy tilshunoslikning dastlabki bosqichi bo'lib, umuman murakkab til hodisalarini to'\ri tushunishiga, ma'lum bir til hamda qardosh til guruhlarini bir-biriga solishtirib, ma'lum til hodisalarini, lu\at tarkibini, fonetik va grammatik qurilishini ilmiy asosda chuqur o'rganish uchun nazariy va amaliy jihatdan zamin yaratib beradi.

**3. Til-bu ijtimoiy hodisa.** U kishilik jamiyatining eng muhim aloqa vositasi bo'lib, jamiyatga xizmat qiladi.

Tilshunoslik fanining predmetini, tilning tabiatini va mohiyatini har xil tushunish fan taraqqiYot tarixida turli ilmiy maktablar va oqimlarning vujudga kelishiga sabab bo'lgan: naturalizm, psixologizm, logisizm, sosiologizm, strukturalizm va hakozo.

Masalan, naturalizm oqimi qarashlarini olib ko'raylik. Bu qarashdagi ba'zi olimlar tilni hayvon, o'simlik kabi jonli narsalarga o'xshatib, tirik organizm deb tushunishgan (Nemis tilshunoslari M.Myuller va A.SHleyxer shu nazariya tarafdorlari edilar).

Bu fanning rivojlanishiga mashhur nemis olimi, umumiy tilshunoslik fanining asoschisi Vilgelm fon Gumboldt (1767- 1835) katta hissa qo'shdi.

XX asrdan boshlab bu fanning predmetini aniqlashda yangi davr boshlandi. Bu vazifaning amalga oshirilishi mashhur shveysariyalik olim Fransua de Sossyur (1857-1930) nomi bilan bo\liq.

F.de Sossyur qarashlaridan ayrimlarini keltiramiz.

- til kishilik jamiyatida bajaradigan vazifasiga ko'ra aloqa quroli, fikrni ifodalaydigan vositadir. Ijtimoiy tabiati jihatdan qaraganda til madaniy, tarixiy va ijtimoiy hodisadir.
- ichki tuzilishiga ko'ra til sof belgi-ishora (znak)lar sistemasidir.
- insonning nutq faoliyati ko'p qirrali hodisa bo'lib, falsafa, psixologiya, fiziologiya, antropologiya, filologiya kabi turli fanlar tomonidan o'rganilishi lozim.

U antinomiya metodidan foydalandi. Til bilan nutqni bir-biriga qarama-qarshi qo'ydi. Uningcha, til ijtimoiy, nutq individual hodisadir.

F.de Sossyur nazariyasi ta'sirida XX asrda «strukturalizm» nomi bilan atalgan yangi lingvistik oqim vujudga keldi. F. de Sossyur «til» substansiya (mohiyat) emas, balki shakldir, degan tezisi struktural \oyalarining rivojida asosiy omil bo'ldi.

Tilshunoslikdagi turli maktab va oqimlarning tilga qanday Yondashishi va tahlil usulining turlicha bo'lishidan qat'iy nazar, hozirgi zamon tilshunosligini uch asosiy tarmoqqa bo'lish mumkin: ekstralingvistika, intralingvistika, komparalingvistika.

Ekstralingvistika tilni ijtimoiy hodisa sifatida o'rganib, sosiolingvistika va mentalingvistikani o'zida birlashtiradi. Sosiolingvistika tilning tabiati va ijtimoiy vazifasini, mentalingvistika esa til va tafakkur, tilning mazmun tomonining nutq faoliyati, kontekst va situasiya (vaziyat) bilan aloqasini o'rganadi.

Intralingvistika tilning ichki sistemasini, uning birliklari va kategoriyalari, tilning yaruslari va uning qurilishini o'rganadi. Fonologiya, leksikologiya va grammatika intralingvistikaning asosiy bo'limlari hisoblanadi.

Komparalingvistika qiYosiy—tarixiy tilshunoslik sifatida hind-evropa tillarining fonetikasi va morfologiyasini qiYosiy o'rganish asosida paydo bo'ldi. Komparalingvistika qiYosiy-tarixiy tilshunoslik, areal lingvistika, tipologiya (universallingvistika)ni o'z ichiga oladi. Xullas, tilni qaysi jihatdan o'rganishdan qat'iy nazar, mana bu xulosa ularning barchasi uchun umumiy bo'ladi: birinchidan, til tabiiy — biologik hodisa emas, ikkinchidan, tilning mavjud bo'lishi va uning taraqqiy etishi tabiat qonunlariga bo\liq emas, uchinchidan, til kishilarning tabiiy belgilariga (oq-qoraligi va boshqa irqiy belgilariga) bo\liq emas, to'rtinchidan, faqat jamiyat bo'lib uyushgan insonlargina aloqa vositasi bo'lgan tilga ega.

Til biror davrning, biror ijtimoiy-iqtisodiy jamiyatning maxsuli bo'lmay, balki butun jamiyat tarixi jaraYonidagi bir qancha davrlarning mahsuli bo'lib, jamiyatdagi turli tabaqa vakillari uchun babbaravar xizmat qiladi. Ba'zi olimlarning fikricha odam paydo bo'lgan vaqtdan boshlab til ham paydo bo'lgan. U avloddan- avlodga o'tib, takomillashib bordi. Natijada insonning gapirish qobiliyati odam ruhiga shuncha chuqur joylashdiki, u nasldan- naslga o'tish xususiyatiga ega bo'ladi, har bir yangi tu\ilgan go'dak tilni yangidan o'rganmasdan, balki organizm balo\atga etishi bilan uning til qobiliyati ham taraqqiy etadi.

Til-material, nutq-faoliyatdir. Faoliyatning etakchi va Yordamchi turlari farqlanadi. Etakchi faoliyatning bajarilishi ong ishtirokida, Yordamchi faoliyatining bajarilishi ong ishtirokisiz amalga oshiriladi. Nutq paydo bo'lishining boshlan\ich nuqtasi ruhiy, yakuniy nuqtasi jismoniydir, chunki u nutq organizmining harakati natijasida paydo bo'ladi. Ana shu ikki nuqta orasidagi jaraYon psixologik tilshunoslikni qiziqtiradigan masaladir. Bu quyidagi modelga to'\ri keladi: mazmun - matn.

Biror mazmunni nutq shakliga keltirishda birinchi bosqich xotiradagi so'z boyligidan zarur so'zni tanlaydi, ikkinchi bosqich to'\ri sintaktik qurilmani aniqlaydi, uchinchisi, so'zni kerakli morfologik shakllar bilan jihozlaydi.

Niyatning tu\ilishi nutqqa kirmaydi. Niyat paydo bo'lgandan keyin inson uni amalga oshirishga harakat qiladi, shu maqsadda mazkur niyatning mazmuni shakllantiriladi, bu jaraYon ikki bosqichni o'z ichiga oladi: birinchi bosqichda matnning temasi va bu tema to'\risida nima deyilishi, ya'ni tema aniqlanadi.

Nutqning yaratilish modeli quyidigicha bo'ladi: niyat (motiv) - chuqur semantik bosqich-tashqi semantik bosqich-chuqur sintaktik bosqich-tashqi sintaktik bosqich - tashqi morfologik bosqich -chuqur tovushlar bosqichi Yoki fonologik bosqich va nihoyat fonetik bosqich.

Turli eksperimentlar Yo'li bilan zamonaviy psixologik tilshunoslik tavsiya etgan model ana shu.

Til tafakkur bilan chambarchas bo\liq bo'lib, tilsiz fikrni ifodalash sira mumkin bo'lmaganidek, tafakkursiz til o'z ifodasini shakllantira olmaydi. Har qanday fikr so'zlarda o'z ifodasini topmagunicha, ya'ni so'zlardan tarkib topgan ifoda qolipga, ifoda shakliga tushmaguncha yuzaga chiqmaydi. Fikr tilda, ya'ni so'zlarda va so'zlar birikishi orqaligina shakllanadi, tilda o'z ifodasini topadi. Til ham tafakkursiz mavjud bo'la olmaydi.

Ammo bunda tafakkur bilan tilni aynan bir xil, bir-biriga o'xshash narsa deb tushunish xatodir. Tafakkur tashqi oddiy olamning kishilar miyasida aks etishining eng yuksak shaklidir. Til esa tafakkurni - fikrni ma'lum bir shaklga solib, so'zlar, so'z birikmalari va jumlalar orqali ifodalaydi.

Til qonunlari bilan tafakkur qonunlari bir-biriga to'\ri kelmaydi. SHuning uchun ham til grammatikaning o'rganish manbai bo'lsa, tafakkur mantiq (logika)ning manbaidir.

Bir-biri bilan chambarchas bo\langan til va tafakkur birga taraqqiy qiladi.

4. YUqorida F. de Sossyurning «til ichki tuzilishiga ko'ra sof belgi-ishora (znak)lar sistemasidir», degan gapini keltirgan edik. Darhaqiqat, tilning ichki qurilishini o'rganish tilshunoslikdagi asosiy muammolardan sanaladi.

Har qanday tilning ichki qurilishi fonetik tuzilish, grammatik qurilish va lu\at tarkibidan tashkil topadi. Tilning ana shu tarkibiy qismlari ma'lum qonun-qoidalar asosida bir-biri bilan bo\lanib, butun bir tilni hosil qiladi, til esa mana shu birikmalar negizida uzviy bo\langan holda bir butun tizimni hosil qiladi.

Tizimning o'zi nima? Tizim bo'lishi uchun albatta bir-biri bilan bo\langan, umumlashgan, o'ziga xos qonunga bo'ysunadigan qancha buyumlar va dalillar bo'lishi shart.

Har bir tildagi gaplar so'zlardan iborat, so'zlar esa nutq tovushlarining birikuvidan hosil bo'ladi. Gaplardagi so'zlar bir- biri bilan til qonun-qoidalari asosida bo\lanib, turli fikrlarni bildiradi. Tilga xos qonun-qoidalarga mos bo'lmagan har qanday so'zlar yi\indisi gap bo'la olmaydi.

Til sistemasini tashkil etgan asosiy yaruslar quyidagilar:

1) fonetik—fonologik yarus

2) lu\at yarusi

3) grammatik yarus.

5. Til jamiyat taraqqiYot jaraYonida ijtimoiy hodisa sifatida paydo bo'ladi, bir jamiyat Yo'q bo'lishi bilan til ham asta-sekin iste'moldan chiqa boshlaydi va davrlar o'tishi bilan o'lik til bo'lib qoladi. Masalan, lotin, su\d, qadimiy xorazm tillari kabi. Biroq tilning paydo bo'lishi, taraqqiy etishi va iste'mol qilinmay qolishi biologik jaraYon emas, balki jamiyat taraqqiYoti bilan bo\liqdir. SHuning uchun til qonunlarini, uning taraqqiYot Yo'llarini jamiyat tarixi bilan va shu tilni yaratgan xalqning tarixi bilan bo\liq holda o'rgangandagina bilish mumkin.

Sosiolingvistika - ijtimoiy tilshunoslik ikki ma'noda ishlatiladi:

1. Til va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabat, ya'ni jamiyat haYoti va rivojlanishda tilning roli va, aksincha, tilning rivojlanishida jamiyatning ahamiyati.

2. Tilda millatning ijtimoiy guruhlanishi munosabati bilan bo'ladigan farqlar.

«Sosiolingvistika» fani quyidagi masalalarni Yoritishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi:

- adabiy tilga asos bo'la oladigan shevalarni topish;
- bo'lajak adabiy tilning tovush tarkibi xususiyatini hisobga olib, milliy Yozuvni yaratish;
- yangi barpo etilgan adabiy tildan rasmiy til sifatida xalq ma'orifi, ma'muriy boshqaruv, madaniy muassasalar va ommaviy axborot vositalarida keng ko'lamda foydalanish.

Hozirgi kunda ijtimoiy tilshunoslik tomonidan hal qilingan masalalar yuzasidan quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin bo'ladi:

- jamiyat taraqqiYoti tillarning ijtimoiy vazifalari ortib borishiga olib keladi;
- hamma adabiy tillarning lu\at tarkibi kengayib boyib boradi;
- ijtimoiy taraqqiYot sur'atining jadallashib borishi adabiy tilda o'z aksini topib boradi;
- qo'shni xalqlar tillarining bir-biriga o'zaro ta'siri ortib boradi;
- millatlararo aloqa vositasi vazifasini o'tovchi tilning ijtimoiy roli oshib boradi va uning boshqa tillarga ta'siri kuchayadi;
- ikki tillilik rivojlanib boradi.

7. Tilning ijtimoiy muhitga ko'ra o'zgarish xususiyatlari «tilning o'zgarish nazariyasi» tushunchasi ostida o'rganiladi.

Tildagi o'zgarishlar tilning ichki jaraYonlari va tashqi ta'sirlar asosida sodir bo'ladi. Tilning ichki o'zgarish jaraYoniga tilshunoslik fanida «kompensasiya qonuni» nomi bilan yuritiladigan hodisani misol tariqasida keltirish mumkin. Bu qonuniyatga ko'ra tilning biror qismida birorta o'zgarish ro'y bersa, bu o'zgarish tilning boshqa qismida ham o'z aksini topadi. Masalan, ingliz va fransuz tillarida grammatik qo'shimchalarning Yo'qola borishi. Fransuz tilida kelishik Yo'qolib ketgan, ingliz tilida kelishik qolgan.

Til o'zgarishining tashqi omillari deganda ko'proq tilning ishlatilishidagi ijtimoiy shart-sharoitlar nazarda tutiladi. Sosial tabaqalar nutqidagi o'ziga xosliklar, guruhdagi o'zaro muloqat xususiyatlari, turli guruhlar orasidagi aloqalar vaqtida qanday so'zlar va grammatik konstruksiyalarni tanlanishi tilning ishlatilish turlarining paydo bo'lishiga olib keladi. SHu bilan birga bunday o'zgarishlar gapiruvchilarning Yoshiga, jinsiga, ma'lumotiga, nutq sodir bo'laYotgan muhitga ham bevosita aloqadordir.

Ichki qonuniyatlar asosida bo'ladigan o'zgarishlarni oldindan hisobga olish mumkin, bu o'zgarishlar gapiruvchining xohish-istagiga bo\liq emas. Ular ob'ektiv o'zgarishlardir. Tashqi omillar asosida paydo bo'ladigan o'zgarishlar sub'ektiv xususiyatiga ega. Bunday o'zgarishlarning hammasini oldindan aytib berish imkoniyatiga doimo ega bo'linmaydi.

Diaxroniya - ayrim til hodisalarining, yaxlitligicha til sistemasining izchil rivojlanish bosqichlarini o'rganish.

Sinxroniya - ana shu bosqichni bugungi holat nuqtai nazaridan o'rganish.

MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR:

1. «Tilshunoslik» fani qanday masalalar bilan shu\ullanadi?
2. Nima uchun «Tilshunoslik» fanining o'rganish sohasi va mavzusi bir-biridan farqlanadi?
3. Ekstralingvistika, paralingvistika va intralingvistika nima?
4. F.de Sossyurning strukturalizm nazariyasini tushuntirib bering.
5. Til va tafakkur dialektikasi.
6. Til va tushuncha masalasi.
7. Til va nutqning o'zaro aloqasi va farqli jihatlari.
8. Sosiolingvistika tushunchasi.
9. Tilni o'rganishdagi diaxronik va sinxronik aspektlar.

## 2-ma'ruza.
## FONETIKA VA FONOLOGIYA
## (8 soat)
## Reja:

1. Fonetika va uning predmeti.
2. Nutq tovushlari va nutq organlari.
3. Nutq tovushlarining umumiy tavsifi. Unli, undosh va sonor tovushlar.
4. Fonetik jaraYonlar. Kombinator va pozision o'zgarishlar.
5. Singarmonizm.
6. Fonema, fonema nazariyasi, fonologik maktablar va oqimlar. Fonologik alomatlar va oppozisiyalar.
7. Bo'\in.
8. Ur\u.
9. Oxang.

*Tayanch so'zlar va iboralar:* artikulyasiya, akustika, eshitib his qilish, artikulyasion fonetika, akustik fonetika, umumiy fonetika, xususiy fonetika, nazariy fonetika, amaliy va normativ fonetika, eksperimental fonetika, segmantal fonetika, supersegmental fonetika Yoki prosodika, fonetika (fonematika), stilistika (uslubshunoslik), tarixiy (Yoki diaxronik) fonetika, qiYosiy-tipologik fonetika, nutq apparati, nafas olish organlari, bo'\iz bo'shli\i, burun bo'shli\i, rezonator, artikulyasiya, ekskursiya, rekursiya, artikulyasiya o'rni va usuli, artikulyasiya bazasi, apikal artikulyasiya, dorsal artikulyasiya, tovush paychalari, aktiv (faol) va passiv nutq organlari, amplituda va chastota, filtr, formantlar, akustik xarakteristika, sub'ektiv va ob'ektiv metodlar, instrumental tasnif etish, palatografiya, palatogramma, ossillograf, garmonik tebranishlar, rentgenografiya, spektral va ossillografik metod, spektral analiz, spektrograf, unli va undosh tovushlar, un paychalari, unli va undosh fonemalar, unlilar sifatida va miqdor belgilari, burun unlilari Yoki nazalizasiyalashgan unlilar, tilning gorizontal va vertikal harakati, til oldi unlilari, o'rta unlilari, til orqa

unlilari, sifat belgisi, miqdor belgisi, monoftonglar, diftonglar, diftongoidlar, lab undoshlari, til undoshlari, bo'\iz undoshlari, dorsal undoshlar, apikal undoshlar, kakuminak tovushlar, portlovchilar (eksploziv undoshlar), sir\aluvchilar (frikativ undoshlar), affrikatlar, imploziv tovushlar, sonorlar, sonant tovushlar, palatalizasiya, aspirasiya, fonetik birliklar, segmentasiya, fraza, takt, bo'\in, pauza, singakgik shakl, prokliza-proklitika, enkliza-enklitika, bo'\inning algebraik modeli, ur\u, so'z ur\usi, fraza ur\usi, dinamik ur\u, muzikal ur\u, kvantitativ ur\u, Yordamchi ur\ular turrun ur\u, erkin ur\u, affiks, logik ur\u, intonasiya (ohang), melodiya, ritm, intensivlik, temp, tembr, prosodik elementlar, emosional ur\u, nutq tempi, ovoz tempi, neytral va emosional tembr, sintagma, fonetik so'z, sintagmatik ur\u, fonetik va leksik, grammatik vositalar, fonetik jaraYon kombinator o'zgarish, pozision o'zgarish, akkomodasiya, assimilyasiya, dissimilyasiya, diereza, epentiza, gaplologiya, proteza, metateza, kombinator fonetika, progressiv akkomodasiya, regrassiv akkomodasiya, o'zaro akkomodasiya, velyarizasiya qilish, progressiv assimilyasiya, regressiv assimilyasiya, distant assimilyasiya, umlaut hodisasi, singarmonizm, pozision o'zgarish, reduksiya, miqdor reduksiya, kuchli va kuchsiz pozisiya, alternasiya, alternatlar, tovush almashinuvi, fonologik (sosial Yoki funksional) aspekt, fonema, kvaziomonimlar, fonetik tavsif (xarakteristika), fonologik oppozisiya, fonologik Yoki farqlash alomatlari, farqlovchi alomatlar, fonologik sistema (tizim), fonematik sistema, fonologik Yoki fonematik struktura, fonologik Yoki fonematik element, fonema o'rni va funksiyasi, binar oppozisiya, ternar oppozisiya, ko'p a'zoli oppozisiyalar, korrelyasion belgi, neytralizasiyalashuvchi va oddiy fonologik oppozisiyalar, arxifonema, pozisiya, distribusiya, kuchli va kuchsiz pozisiya, allafonlar, variasiyalar, alloxron, fonotaktika, farqlovchilik Yoki diffirensial funksiya (vazifa), tanib olish funksiyasi, ekspressiv funksiya, fonostilistika, fonetik va fonologik transkripsiya, allofonik transkripsiya, lotin alfaviti, grafematik transkripsiya, diakretik belgilar transkripsiya, xalqaro fonetik alfavit, tonetik transkripsiya, tonogramma, morfematik transkripsiya, leksematik transkripsiya, grafematik transkripsiya, transliterasiya, antroponimlar, toponimlar, orfoepiya me'Yor, umumiy fonetik qonuniyatlar, singarmonizm, xususiy fonetik qonuniyatlar, diaxronik fonetik qonuniyatlar, sinxronik fonetik qonuniyatlar, diaxronik fonetika, konvergensiya, divergensiya.

Inson nutqi gaplardan, gap so'zlardan, so'z tovushlardan tashkil topadi.

Fonetika (grekcha — fone — tovush) tilshunoslikning bir bo'limi bo'lib, tilning tovush tizimini, nutq tovushlarini o'rganadi.

Fonetikada nutq tovushlari 4 tomondan o'rganiladi: 1) nutq organlarining nutq tovushlarini talaffuz qilishdagi xarakati, ya'ni artikulyasiyasi o'rganiladi; 2) tovushlar qanday fizik tebranishlar natijasi ekanligi, ya'ni akustik tomoni hisobga olinadi; 3) nutq tovushlari bo'\in, ur\u, va ohangning eshituvchi tomonidan anglab his etilishi tekshiriladi; 4) nutq tovushlarining tildagi so'zlar, frazalar va gaplarni bir-biridan farqlash uchun xizmat qilishi, ya'ni fonologik tomoni o'rganiladi.

Fonetikani o'rganishning nazariy va amaliy ahamiyati bor. Tilning talaffuz alomatlari nazariy jihatdan o'rganiladi. Fonetika amaliYotda keng qo'llaniladi. Tilning tovush tarkibini yaxshi o'rganishda, orfografiya masalalarini to'\ri hal qilishda

Yozuvi bo'lmagan xalqning Yozuvini yaratishda, eski Yozuvdan yangi Yozuvga o'tishda, chet el tillarini o'rganishda, tili chuchuk bolalarning tilini tuzatishda va boshqa sohalarda fonetikaning ahamiyati nihoyatda kattadir.

Fonetikaning quyidagi turlari mavjud:

- vazifasiga ko'ra: umumiy va xususiy fonetika. Umumiy fonetika dunYo tillariga tegishli bo'lgan umumiy fonetik qonuniyatlarni o'rganadi. Xususiy fonetika esa biror konkret tilga xos bo'lgan tovushlar sistemasini o'rganadi;
- maqsadiga ko'ra: nazariy fonetika, amaliy fonetika, eksperimental fonetika. Nazariy fonetika ma'lum bir tilning tovush xususiyatlarini nazariy jihatdan tasnif etadi. Amaliy fonetik esa muayyan tilning fonetik, orfoepik me'Yorlarini o'rganadi. Ossillograf, kimograf singari alohida apparatlar bilan (Yordamchi) nutq tovushlari bo'\in, ur\u va ohangdagi artikulyasion-akustik xususiyatlarini o'rganish eksperimental fonetikaning asosiy vazifasidir.

Fonetika o'z tekshirish ob'ektining davrga munosabati nuqtai nazaridan 2 xil bo'ladi: tasviriy (sinxron) fonetika va tarixiy (diaxron) fonetika. Tasviriy fonetika muayyan konkret til tovush tarkibining hozirgi davrdagi ahvolini o'rganadi. Tarixiy fonetika biror konkret tildagi nutq tovushlarining tarixiy taraqqiYotini, qanday o'zgarishlarga uchraganini va bu o'zgarishlarning sabablarini tekshiradi.

Nutqning fonetik qismlarini o'rganishiga qarab fonetika ikki turga bo'linadi: segmantal fonetika va supersegmental fonetika. Nutq tovushlari hosil bo'lishi va uning xususiyatlarini o'rganuvchi fonetika segmental (segment - nutq bo'lagi) fonetika deyiladi. Nutq tovushlaridan katta bo'lgan fonetik birliklar: bo'\in, so'z va frazalarni o'rganuvchi fonetikaga esa supersegmental fonetika deyiladi Yoki prosodika deyiladi.

Asosiy fonetik birliklar: fraza, takt, bo'\in, nutq tovushlari.

Grammatika ham nutqni tarkibiy qismlarga ajratadi: gap, so'z birikmasi (fraza), so'z va morfemalar kabi, garchi har ikki qatlam nutqning son nuqtai nazaridan bir xil bo'lsa ham sifat jihatidan bir-biriga mos kelmaydi.

Fraza nutqning eng katta birligi bo'lib, ikki tomondan pauza bilan chegaralanib, o'ziga xos ohangga ega bo'ladi. Masalan: quYosh tik kelgan (1 gap, 1 fraza), SHipi past, devorlari yupqa, torgina do'konxona, har vaqtdagidek ivirsiq (bu gapni to'rt frazaga ham, ikki fraza ham bo'lish mumkin). Frazani jumla deyish ham mumkin. Gap bilan jumla hamma vaqt ham bir biriga to'\ri kelavermaydi.

Takt. Frazaning ikki kichik pauzasi orasiga joylashgan va yagona ur\u bilan talaffuz qilinadigan bir Yoki bir necha bo'\inning yi\indisi takt deb ataladi. Masalan: Havo bulut edi 1, 2-so'z ur\uli, 3-ur\usiz. Ur\u olmagan so'zlar ur\uli so'zning oldidan va keyinidan kelishi mumkin: oldidan na rabotu, za mir - proklitik elementlar, bulut edi - keyinda enklitik elementlar.

Fonetik birlik bo'lmish takt grammatikada so'z birikmasi bilan qiYoslansa, ular hech vaqt bir -biriga to'\ri kelmaydi.

Bo'\in. Takt bo'\inlardan tashkil topadi. Bo'\in bir Yoki bir necha tovushdan tashkil topib, bir zarb bilan talaffuz qilinadigan fonetik birlikdir. Bo'\in asosan unli tovush bilan belgilanadi.

Nutq tovushi asosiy fonetik birlik sanaladi. U uch aspektda o'rganiladi: akustik, fiziologik, fonologik.

Fizikada tovush to'\risidagi umumiy nazariya akustika deb ataladi. Akustika har qanday tovushlarning, jumladan, nutq tovushlarining quyidagi belgilarini farqlaydi:

1) akustika tovush kuchi, ya'ni tebranish chegarasiga bo\liqdir;

2) tovushlarning past-balandligi tebranish tezligiga, ya'ni bir sekundda bo'ladigan tebranish miqdoriga bo\liq. Tebranish qancha ko'p bo'lsa, tovush shuncha baland chiqadi, tebranish kam bo'lsa, tovush past chiqadi;

3) tovushning cho'ziq-qisqaligi tebranish vaqtining davomli Yoki davomisiz bo'lishiga bo\liq. Tebranish davomisiz bo'lsa, tovush qisqa chiqadi.

Nutq tovushi tembri (sifati) asosiy ton bilan Yordamchi tonlarning va shovqinning qo'shilishidan yuzaga keladi. Tovushning tembri rezonatorlik vazifasini bajaruvchi o\iz bo'shli\i va burun bo'shli\ining hajmi va shakliga, tovush paychalarida hosil bo'ladigan shovqinlarning qanday bo'lishiga ham bo\liq. SHunga ko'ra bir kishining ovozi boshqa kishining ovozidan farq qiladi.

Murakkab tovush tebranishining chastotasi bilan boshqa akustik vositalarni kelishtirib turuvchi mexanizm akustika fanida filtr deb ataladi. Odamning o\iz bo'shli\lari va burun bo'shli\lari birgalikda unlilarni hosil qiluvchi akustik filtrni tashkil qiladi.

**Fiziologik aspekt.** Nutq tovushlari talaffuz organlarining ma'lum xarakati bilan hosil bo'ladi. Nutq tovushlari hosil bo'lishda ishtirok etuvchi organga nutq organlari deyiladi. Bu organlarning yi\indisi esa nutq apparati sanaladi. Nutq apparati: 1. Nafas olish organlari. 2. Bo'\iz bo'shliri. 3. O\iz bo'shli\i. 4. Burun bo'shli\i.

Ma'lum bir tilga xos bo'lgan nutq tovushlarini hosil qilishga muvofiqlashgan nutq apparati artikulyasion baza deb ataladi.

Tovush artikulyasiyasida uch holat bo'ladi:

1. Ekskursiya — tovush hosil qilishga o'tish.
2. Rekursiya—tovush chiqarish uchun pauza qilish (to'xtab olish).
3. Bosh holat — asil holiga qaytish. Artikulyasiyada ikki hodisa juda muhim rol o'ynaydi: artikulyasiya o'rni va artikulyasiya usuli.

Tovush hosil qilishda nutq organlarining ishtirok etgan qismi artikulyasiya o'rni deyiladi. Tovush hosil qilish paytida ikki organning bir-biri bilan jipslashishi Yoki jipslashmay, oradan havoning o'tib ketishi uchun bo'shliq qolishi artikulyasiya usuli deyiladi.

Fonologiya xaqida esa yuqorida (1-savolda) so'z yuritganmiz.

**Nutq tovushlarining tasnifi**

Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra tovushlar ikki katta guruh - unli va undoshlarga ajratiladi.

Artikulyasiya jihatdan unli tovushlar talaffuzida o'pkadan chiqib kelaYotgan havo hech qanday to'siqqa uchramasdan o'tadi, undoshlar talaffuzida esa havo oqimi biror to'siqqa duch keladi. Unlilarning miqdori va sifati barcha tillarda bir xil emas. Masalan: rus 43-6, fransuz 21-13, arman 30-6, gruzin 28-5, eston 16-9, ingliz 24-21, o'zbek 23-6.

Jahon tillarining deyarli barchasida undosh tovushlar unlilardan ko'p va shu tufayli ularning funksional xizmati ham kattadir.

**Unlilar.** Tildagi unlilar sistemasi vokalizm deyiladi. Unlilar sof ovozdan iborat, ohangdorlik kuchli bo'ladi, ovoz to'siqqa uchramaydi, istagancha cho'zib talaffuz

qilish mumkin. Nutq jaraYonida undoshga nisbatan salmoqli o'rin tutadi. Hozirgi o'zbek tilida olti unli fonema bor: a, o, u, o', i, e. Ular tasnifida uch holat e'tiborga olinadi:

1. Tilning gorizontal holati:

a) til oldi: i, e, a.

b) til orqa: u, o', o.

**Eslatma:** til orqa: qiliq. Til oldi: o'rdak, uka.

2. Tilning vertikal holati.

a) tor unli: i, u.

b) o'rta keng unli: e, o'.

v) keng unli: a, o.

3. Labning ishtiroki.

a) lablashgan: u, o', o.

b) lablashmagan: i, e, a.

O'zbek Yozuvida olti unli fonemadan tashqari yana to'rtta Yolashgan unli Yoki grafema bor: e, Yo, yu, ya.

Undoshlar. Undoshlar sistemasi konsanantizm deb ataladi.

O'zbek adabiy tilida 25 ta undosh fonema bor: b, v, g, d, z, j, dj, y, k, l, m, n, i, r, s, t, f, x, s, ch, sh, q, ʀ, k, ng. Bu fonemalardan ikkitasi Yozuvda alohida harflar bilan ifodalanmagan.

Undoshlarni xarakterlash va tasniflash unlilarga nisbatan murakkabroqdir. Tasnif prinsipi boshqacharoq. Undoshlarning umumiy bo'linishida ko'rsatuvchi tomonlar asosan beshta:

1. Undoshlarning paydo bo'lish o'rniga ko'ra xususiyatla -ri: a) lab undoshlari: b, m, p, v, f; b) til Yoki til —tish undoshlari: t, d, s, z, sh, j, dj, ch, n, l, r, k, g, ng; v) bo'\iz tovushi; h.

2. Aytish usuliga ko'ra; a) portlovchi; t, d, p, b, k, q, ch, dj, g, s, m, n, ng; b) sir\aluvchi; v, s, z, sh, j, x, g, f, y. 9

3. Tovush paychalarining ishtirokiga ko'ra; a) jarangli: b, v, z, d, j, dj, g, \, y, m, n, r, l, ng: b) jarangsiz: p, f, s, t, sh, ch, s, k, q, x, k.

4. Ovozning ishtirokiga ko'ra: a) sonorlar: m, n, ng, l, r: b) qolgan undoshlarning hammasi shovqinlilar xisoblanadi.

5. Tarkibiga ko'ra: a) qorishiq; ch-tsh, dj—d-j, s—ts (afrikat); b) qolganlari sof.

Nutq tovushlarining o'zagarishi.

Nutq oqimida yuz beradigan tovush o'zgarishi fonetik prosess (jaraYon) deyiladi. Ular ikki xil bo'ladi; kombinator o'zgarish, pozision o'zgarish.

Nutqda tovushlarning qo'shni tovushlar ta'sirida miqdor va sifat belgilarining o'zgarishi kombinator o'zgarishlar deyiladi. Ularga akkomodasiya, assimilyasiya, dissimilyasiya, diereza, epenteza, gaplologiya, proteza, metatezalar kiradi.

Akkomodasiya-(muvofiqlashuv). YOnma-Yon kelgan undosh va unli tovushlar artikulyasiyasining bir-biriga uy\unlashuvi; i—u, k—g; kiyik, sigir, bugun, gul. i—u, q —k; qiyin, \ujum, \ijim.

Assimilyasiya. Biror tovushning boshqa bir tovush ta'sirida unga o'xshashlik tomon o'zgarishi assimilyasidir. Progressiv: etti, sotti, otkan; regressiv; tussiz, ulu\, sifat.

Eslatma: Ayrim olimlar singarmonizmni ham assimilyasiyaning ko'rinishi deb qaraydilar. (A.S.A.Tilshunoslikka kirish).

Dissimilyasiya. So'zdagi bir xil Yoki bir-biriga qisman o'xshash tovushlardan birining artikulyasion jihatdan farq qiladigan boshqa tovush tomon o'zgarishi: progressiv: zaral, zaril, bironta, birorta: regrassiv: intifoq—itipoq.

Metateza. Orzaki nutqda ba'zan Yonma-Yon kelgan undosh tovushlarning o'rin almashishi: darYo-dayro, Yom\ir-Yo\mir, tebratmoq-terbatmoq, tuproq-turpoq, aylanmoq-aynalmoq.

Proteza. So'z boshida bitta unlining orttirilishi; ro'mol-o'ro'mol, stol-ustol, rus-o'ris, stakan-istakan.

Epenteza. So'z boshida, o'rtasida va oxirida ikki undosh qator kelganda, ular orasida i, ba'zan u va a unlisi orttilishi: fikr-fikir, hukm-hukum, doklad—dakalad.

Proteza. So'z boshida ba'zan unli Yoki undosh tovush tushib qoladi: yirik—irik, yigna—igna, ya\och —a\och.

Epiteza. So'z oxirida bir o'rinda ikki undoshdan so'ng a tovushining qo'shilishi: bank-banka, kiosk-kioska, otpusk- otpuska.

Apokopa. So'z o'zagidagi oxirgi unli Yoki undoshnig tushishi; do'st-do's, xursand-xursan kabi.

Sinerezis. So'z o'rtasida bir joyda kelgan ikki unlidan birining kuchsizlanishi va nutqda tushib qolishi, ikkinchi unlining cho'ziq talaffuz qilinishi: maorif — mo:rif, saodat- so:dat, qiroat-qiro:t. Bu hodisa asli o'zbekcha so'zlarga xos emas.

Reduksiya: so'zning birinchi bo'\inida unlining kuchsizlanib talaffuz qilinishi. Bunga ikkinchi bo'\inning cho'zilib talaffuz qilinishi sabab bo'ladi: bir, bil, til-bilak, birlik, tilak. Kuchaygan holat: burun-burni, bo'yin - bo'yni, egin - egni.

Eliziya. Unli bilan tugovchi va unli bilan boshlanuvchi ikki so'zning qo'shilishi natijasida unli tovushdan birining tushib qolishi: Yoza oldi-Yozoldi, bera oldi - beroldi, Abdusalom-Absalom, borar emish-borarmish.

**Tovushlarning funksiyaonal jihati**

YUqorida nutq tovushlarining to'rtinchi jihatini fonologik aspekt, deb atagan edik. Fonologiyada tovushlarning funksional jihatlari o'rganilishi ham ta'kidlangan edi.

**Fonemani eslaylik.** Fonemaga tegishli barcha artikulyasion-akustik belgilar uning fonetik harakteristikasi deyiladi. Masalan, p fonemasining lab-lab, portlovchi, jarangsiz kabi belgilari uning fonetik xarakteridir. Fonologik jihatdan fonemalar bir — biriga qarama-qarshi qo'yiladi; p-t, s-sh, x-q, a-o, u-i kabi. Bunday fonemalarning qarama-qarshi qo'yilishi fonologik oppozisiya deyiladi.

Har bir fonema fonologik oppozisiyaning a'zosi hisoblanadi. Tildagi barcha fonemalar o'zaro oppozisiyani tashkil qiladi. Bu fonemalarning bo\lanishi va aloqalarining yi\indisi fonologik sistema Yoki fonematik sistema deb yuritiladi. Fonemalarning o'zaro bo\lanish xarakteri, ya'ni uning qanday ichki aloqada ekanligi fonologik Yoki fonematik struktura deb ataladi. Har bir fonema fonologik birlik Yoki element deyiladi. Har bir til o'zining fonologik sistemasiga ega bo'lib, undagi har bir fonemaning o'z o'rni va funksiyasi bor. Bir tildagi fonema ikkinchi tilda bo'lishi mumkin emas.

Tildagi so'z va so'z formalarini tashkil etuvchi fonemalarni go'Yo Yonma-Yon qo'ygandek ko'rinishga ega sifatida tasavvur qilish mumkin emas. CHunki fonemalar

bir-biriga birikish jaraYonida har xil o’zgarishlarga uchraydi. Har bir fonema o’zining fonologik (farqlanuvchi) elementlariga ega. Har xil fonemalar qarama-qarshi qo’yilganda, bu belgilarni aniqlash mumkin. Masalan, b-p fonemalari jarangli, jarangsiz belgilari bilan farqlanadi. Ularning qolgan belgilari lab va portlovchi xususiyati har ikkisiga xos xususiyat, ya’ni fonologik emas.

Tildagi fonologik oppozisiyalar ikki a’zodan iborat bo’lsa, binar oppozisiya deyiladi: b-p, t-ch,i-u kabi. Fonologik oppozisiyalar uch a’zodan iborat bo’lsa, tenar oppozisiya deyiladi: p-t-k, i-e-a kabi. Uchtadan ortiq a’zoga ega bo’lgan oppozisiyalar ko’p a’zoli oppozisiyalar deyiladi: b-d-g-k.

Tildagi fonemalar bir qancha tovushlarda namoYon bo’ladi. Fonemalar bo’\inlar, so’zlar, so’z birikmalari va frazalarning tarkibida joylashgan. Ular har xil o’rinlarda va holatlarda uchraydi. Odatda bu holatlar pozisiya deyiladi. Fonemalarning har xil aytilish shartlari bo’yicha taqsimlanishi ularning distribusiyasi deyiladi.

YAna bir jihatiga e’tibor beraylik: bo’\in, ur\u va ohang nutqni ifodali qilish uchun ekspressiv funksiya bajaradi. Bu funksiya tilning stilistika bosqichidagi fonostilistika deb ataluvchi qismida o’rganiladi. Xususan, unli va undosh tovushlarini cho’zib aytish, bo’\in orttirish, intonasiyaning melodiyasi (ohangi) va ur\usini odatdagidan ko’ra boshqacha aytish xususiyati fonologik belgilardir.

**Fonologiya nazariyalari**

Tilshunoslik tarixida tovush sistemasini o’rganish ikki davr bilan xarakterlanadi:

1. «Fonema» tushunchasi paydo bo’lgunga qadar bo’lgan davr.
2. Fonologiya nazariyalarining yuzaga kelish davri. Bu davr XIX asrning 2-yarmidan boshlab XX asrgacha davom etadi. Bu davrda tovush, harf va fonema tushunchasi farq qilinadi va keyingi bo’\in, ur\u hamda intonasiyaning tildagi funksional tomonlari o’rganila boshlandi.

Fonologiya asoschilari: rus va polyak olimi I.A.Boduen de Kurtene, N.V.Krushevskiy, fransuz P.Passi, ingliz G.Sunt, shveysariyalik Ferdinand de Sossyur, rus P.K.Us.

Nazariyalar: 1. I.A,Boduen de Kurtenening psixologik fonologiya nazariyasi. («Fonema» tovush tushunchasining kishi ongida his etilgan birligidir).

2. L.V.SHerba — fizik fonologik nazariya (Nutq tovushlari fizik, mexanik hodisa hisoblanadi).

3. Leningrad va Moskva fonologiya maktablari nazariyachilari. L.V.SHerbaning shogirdlari-ikki oqimda Moskva-A.A.Reformatskiy, P.S.Kuznesov, V.N.Sidirov va boshqalar. Leningrad-L.R.Zinder, M.I.Matusevich, A.N.Gvozdev, YU.S.Maslov va boshqalar Moskva maktabi fonologiyaga ta’rif berishda morfema tushunchasiga, ya’ni tilning eng kichik ma’noli birligiga suyanadi. Bunda morfemalardagi tovush almashuvida ishtirok etuvchi tovushlar bir fonemaga birlashtiriladi. Masalan, voda, vodi, na vodu morfemalardagi o, a, o’ tovush almashuvi bir o fonemasining variantlari hisoblanadi. Leningrad fonologiya maktabi fonemaga ta’rif berishda so’z formasi tushunchasidan kelib chiqib, yuqoridagi misolda o, a, o’ tovushlarining har birini alohida fonemaning vakili sifatida qaraydi.

«Fonema» termini va tushunchasini turkologiyaga birinchi marta 1920 yilda taniqli olim N.K.Dmitriev kiritgan bo’lsa, uni o’zbek tilshunosligida birinchi bor o’sha yillarda professor E.D.Polivanov qo’lladi.

CHet ellarda fonologik nazariyalarning o'rganilishi.
1. Praga lingvistik maktabi.
2. London fonologiya maktabi.
3. Distributiv fonologiya nazariyasi (A+SH).
4. Dikotalik fonologiya nazariyasi — (A+SH).
5. Makro va mikrofonema nazariyasi - (A+SH, 1935).
6. Glossematik fonologiya nazariyasi (Daniya).
7. Ikki po\onali fonologiya nazariyasi.
8. Generativ fonologiya nazariyasi.

Ularni konkret tillarga tadbiq etish masalasi.

**Mavzu yuzasidan savollar:**

1. Fonetika qanday masalalar bilan shu\ullanadi?
2. Fonetik jihatdan nutq qanday birliklarga bo'linadi?
3. Fraza, takt, bo'\in va nutq tovushini ta'riflang.
4. Fonologiya qanday masalalar bilan shu\ullanadi?
5. Nutq tovushlarining akustik xususiyati deganda nima tushuniladi?
6. Nutq tovushlarining fiziologik xususiyati deganda nima tushuniladi?
7. Unli va undosh tovushlarni tasniflab bering.
8. Nutq tovushlarining o'zgarishlarini tushuntirib bering.

## 3-ma'ruza. LEKSIKOLOGIYA VA SEMASIOLOGIYA (2 SOAT)

**Reja:**

1. Leksika, leksikologiya va semasiologiya xaqida umumiy tushuncha.
2. So'z va uning ta'rifi. Til qurilishida so'zning o'rni.
3. So'zning tovush va ma'no tomonlari. Uning tushuncha bilan aloqasi.

***Tayanch so'zlar va iboralar:*** lu\at tarkibi Yoki leksika, leksikologiya, semasiologiya, tilning ifoda plani, tilning mazmun plani, nominasiya nazariyasi Yoki onomasiologiya, leksik stilistika (uslubiyat), etimologiya, frazeologaya, onomastika, toponimika, polisintetik tillar, minimal sintaktik birlik, semantik belgilar, so'zning aksent qurilishi, so'zning morfemik tuzilishi, atama, so'zning leksik ma'nosi, predmet va tushuncha, nominativ vazifa, kontekst (matn), nutq vaziyat, so'zning grammatik ma'nosi, turdosh otlar, atoqli otlar, denotativ aloqa, segnifikat, struktural aloqa, semema, leksema, sema, konnotativ ma'no, semantik Yoki tushuncha maydoni, kontekstologiya (matnshunoslik).

So'z tilning asosiy va markaziy birligi xisoblanib, tildagi so'zlarning jami leksikani (lu\at tarkibini) tashkil etadi. Tilshunoslik fanining til leksikasini o'rganuvchi bo'limi leksikologiya (grekcha lexis — «so'z» va logos—«ta'limot») deyiladi.

Leksikologiyada so'zlar quyidagi xususiyatlari bo'yicha o'rganiladi:
1. So'zning semantik qurilishi.
2. So'zlarning shakl va ma'no munosabatlari.
3. Leksikadagi so'zlarning o'z Yoki o'zlashgan so'z ekanligi.
4. +o'llanishiga ko'ra, so'zlarning umumiy Yoki chegaralanganligi.
5. Tarixiy jihatdan o'zbek tili leksikasi.
6. So'zlarning emosional-ekspressiv bo'Yoq Yoki stilga munosabati.

Boshqacha aytganda, leksikologiyani o'rganish juda keng soha bo'lib, u so'zlarning hosil bo'lishi, lu\at tarkibining boyishi va nutqda ishlatilishi, ma'nolarning o'zgarishi, torayishi va kengayishi, turli atamalarning qo'llanilishi kabi bir qator masalalarni qamrab oladi. SHu tufayli leksikaning turli tomonlarini o'rganuvchi alohida sohalar mavjud. Semasiologiya, leksikografiya, onomasiologiya, etimologiya, frazeologiya, onomastika kabi. U Semasiologiya til birliklari (til ishoralari)ni ma'no jihatdan o'rganadi. Til birliklarining birinchi navbatda, leksik birliklarining semantik qurilishini va u bilan bo\liq masalalarni o'rganuvchi soha semasiologiya deyiladi. Ya'ni u tilning barcha ma'no anglatuvchi birliklarini o'rganadi.

Leksikografiya tilshunoslikning lu\at tuzish ishi bilan, uning nazariy masalalari bilan shu\ullanuvchi bo'limi hisoblanib, unda til tarkibidagi so'zlarni ma'lum tartib va maqsad asosida (alfavit tarkibidagi, nutqda ishlatilish darajasi va shu kabilarga ko'ra) Yozma ravishda to'plab lu\at tuzish masalalarni o'rganadi.

Onomasiologiya leksikologiyaning lu\aviy birliklarini nomlash va tushuncha anglatish prinsiplari va qonuniyatlarini o'rganuvchi bo'limi bo'lib, narsa va hodisalarga nom berish jaraYonini qamrab oladi.

Etimologiya so'zlarning kelib chiqishi masalalari bilan shu\ullanadi. YAsama, qo'shma so'zlar va xorijiy tillardan o'zlashtirilgan ma'nolar bilan ham qiziqadi. Etimologiya so'zning har ikki tomonini, ya'ni shakli va ma'nosini hisobga oladi.

Frazeologiya tilning tur\un birikmalarini o'rganadi.

Onomastika atoqli otlarni o'rganadigan fan bo'lib, antroponimika (odamlarning ismini ilmiy jihatdan o'rganadi), toponimika (geografik nomlarni o'rganadi), etnonimika (millatlarning nomlarini o'rganish)dan tarkib topadi.

Tilning hozirgi holati va uning tarixiy bosib o'tgan Yo'li jihatidan leksikologiya 2 turga ya'ni sinxronik (zamonaviy) va diaxronik (tarixiy) leksikologiyaga ajratiladi.

Tilning lu\ati tasnifiy va qiYosiy o'rganilishi mumkin. Ayrim olingan tilning lu\at boyligini har tomonlama o'rganish tavsifiy leksikologiya deyiladi. Ikki Yoki undan ortiq tillarning lu\at boyligini qiYosiy o'rganish qiYosiy leksikologiya deb yuritiladi.

**So'z va uning ta'rifi. Til qurilishida so'zning o'rni**.

«So'z fonetik jihatdan shakllangan bir butunlikdir: fonema va morfemalar so'zning asosiy birliklari, so'zlar mustaqil bo'lib, o'z ur\usiga ega. Ur\u so'zning fonetik jihatdan butunligini ta'minlab, undagi tovushlarni birlashtirib va shu bilan birga, nutq jaraYonida bir so'zni ikkinchi so'zdan farqlash uchun xizmat qiladi. So'zning butunligini ko'rsatuvchi bir dalil pauzadir», deydi M.Irisqulov.

Nazarimizda, bu ta'rif birmuncha tarqoqdir. CHunki ta'rifda so'zning barcha muhim tomonlari o'z ifodasini topishi kerak. SHu ma'noda so'zni quyidagicha izohlash mumkin:

So'z borliqdagi hodisa va narsalarning ma'nosini ifoda etuvchi, grammatik jihatdan shakllangan va jamiyat a'zolari tomonidan bir xil tushuniladigan, tovush shaklida ifodalangan mustaqil va markaziy til birligidir.

Til qurilishida so'z alohida o'rin egallaydi. SHuning uchun ham u faqat leksikologiya va semasiologiyada emas, balki boshqa sohalarda ham ilmiy tadqiq etiladi.

So'zni grammatik jihatini olib qaraylik. Tilning eng kichik ma'noli birligi hisoblangan morfema orali\ida so'zning ma'noli qismlari: o'zak, suffiks va hokazolar qaralsa, mustaqil so'z formasidagi gaplar (masalan, nominativ gaplar: qish, sovuq, qoron\u kabi) sintaktik jihatdan alohida gap turlari sifatida izohlanadi.

Ko'rinadiki, so'z qurilishi va semantik jihatdan ma'noli qismlarga bo'linish xususiyatiga ega. Bir morfemali va ko'p morfemali so'zlarning o'zagi mustaqil ma'noga ega bo'ladi. Demak, so'z mustaqil ma'noga ega bo'lgan birlikdir.

Demak, so'z shakli (tovush shakli) va mazmun birligiga ega bo'lib, semantik va grammatik yaxlitlikni o'zida mujassamlashtiruvchi birlikdir. U til qurilishida shakl va ma'no jihati bilan to'rt bosqichda ilmiy tahlil etiladi:

a) fonologik jihatdan so'zning fonemalar tarkibi va uning aksent (ur\u) qurilishi o'rganiladi;

b) morfologik jihatdan so'zning morfemik tuzilishi ilmiy tahlil qilinadi;

v) leksik jihatdan so'zning atama birlik ekanligi, ya'ni nom qo'yish bilan bo\liq tomoni qaraladi;

g) semantik jihatdan so'zning turli ma'no tomoni tadqiq etiladi.

Ko'rinadiki, so'z til qurilishining barcha sohalari bilan bo\liq.

So'zning fonetik qurilishi haqida oldingi darslarda bahs yuritganmiz.

Xo'sh, uni morfologik jihatdan o'rganish nima uchun kerak?

So'zlar alohida olinganda ma'lum bir ma'noni anglatishga xizmat qilsa-da, keng ma'nodagi fikrni ifodalay olmasligi mumkin. Ana shunday paytda, garchi so'zga ikkilamchi bo'lsa-da, grammatik vositalarga ehtiYoj tu\iladi. Ular so'zlarni bo\lashga, ularning shaklini o'zgartirishga, binobarin ma'noning o'zgarishiga ham xizmat qiladi.

SHu nuqtai nazardan so'z ham, gap ham qurilmadir. Ular ma'lum tarkibiy qismlardan tashkil topgan bo'ladi.

Bir qarashda betartibdek tuyulgan so'zlar aslida o'zlarining leksik va grammatik xususiyatlariga ko'ra turli so'z turkumlariga ajratiladi.

Leksik xususiyati deganda uning ma'nosi negiz yasovchi elementi nazarda tutiladi. Grammatik xususiyati esa so'zning grammatik shakli, ya'ni qanday grammatik qo'shimchalar olishi, gapda qanday gap bo'lagi bo'la olishi va nihoyat so'zlarning bir-biri bilan birika olishi kabilar hisobga olinadi.

So'zning boshqa so'zlar bilan birikishi, ya'ni distribusiyasi so'zlarining grammatik va leksik-grammatik nuqtai nazaridan qaralishi kerak.

Grammatik distribusiya deganda bir turkumdagi so'zning boshqa turkumdagi so'z bilan birika olishi tushuniladi. Leksik-semantik distribusiyada so'z ma'nolarining bir-biriga mos kelish- kelmasligi tushuniladi.

Hozirgi zamon tilshunosligida so'zning ma'nosini signifikat atamasi bilan so'z anglataYotgan hodisani esa denotat atamasi orqali ifodalanadi. U quyidagi shakldа beriladi (sxema chizib ko'rsatiladi).

SHunday qilib, so’zlar bir-biri bilan bo\langan uch jihat: shakl, narsa (hodisa) va mazmundan tashkil topadi.

So’z va u atagan narsa o’rtasida bevosita bo\lanish Yo’q. Hozirgi zamon fanining xulosasi shu. +adimgi YUnonistondagi oqimlar - anologistlar bor degan, anomalistlar - Yo’q degan.

So’zni tashkil etuvchi tovushlar predmetning qiYofasi bo’lmay, uning ishorasidir. Narsa ishorasi bo’lmish so’zning tovushlar yi\indisi-shartli va ixtiYoriy emas. Unga odamlar tashqaridan o’z xohish irodalariga qarab ta’sir o’tkaza olmaydilar.

B.A.Golovinning ushbu gapi diqqatga sazovordir: «Kishilarning ongida ham so’zning, ham narsaning fizik va moddiy tuzilishi aks etadi. Demak, narsa bilan so’zning qiYofasi bizning ongimizda birlashib bir butunlikni tashkil etadi».

So’zning fizik qiYofasi bilan u anglatgan narsaning fizik qiYofasi o’rtasidagi bo\lanish birligini ma’no deb ataymiz.

Demak, ma’no borliqdagi predmetni aks ettiradi, so’zning moddiy tomoni esa predmetning ishorasi bo’lib xizmat qiladi.

**So’z va tushuncha.** So’zning leksik-semantik xususiyatlari uning leksik, grammatik va semantik jihatlari o’zida mujassamlashtiradi.

YUqorida ta’kidlanganidek, qadimiy tilshunoslikda so’z va nom o’rtasida moslik bor deb qarash ham mavjud edi.

So’zning aytilishi bilan predmet Yoki hodisa o’rtasidagi bo\lanish uning ma’nosini yuzaga chiqaradi.

So’zlar aslida turli struktural ko’rinishlarga egadir. SHu tufayli so’zning predmet va tushuncha bilan bo\lanishini shartli ravishda qaramoq zarur. CHunki barcha so’zlar ham predmet, hodisa Yoki belgining nomini atamaydi, ya’ni hamma so’zlar nominativ funksiyaga ega emas (So’z turkumlari bo’yicha qaraganda ma’lum bo’ladi).

So’z biror tushuncha, predmet, hodisa Yoki belgini ifodalay oladi. Lekin so’z tushuncha va predmetning aynan o’ziga xech to’\ri kelmaydi.

Ayrim olingan so’zga tegishli bo’lib, boshqa so’zlardan farqlay oluvchi ma’no shu so’zning leksik ma’nosi deyiladi. O’z leksik ma’nosidan tashqari premetlik va harakat ma’nolarini ifoda qilinishi grammatik ma’nosidir. Grammatik ma’no so’zning leksik ma’nosiga orttirilgan qo’shimcha ma’nodir.

Barcha so’zlar o’z aytilishi, ya’ni tovushlar birikmasi Yoki bir tovushdan iborat bo’lgan material tomoniga ega. So’zning material tomoni u ifoda etgan predmetning belgisi deb qaraladi. Til esa ana shunday belgilarning alohida tizimidir.

Tilning mazmun planida so’zning asosiy ma’nosi semema termini bilan ataladi, ifoda planida esa leksema deb yuritiladi. Masalan, bormoq, yurmoq, chopmoq, kelmoq, qadam bosmoq so’zlari turli leksemalar bo’lib «harakat qilmoq»ni ko’rsatuvchi bir sememaga birlashadi. Ammo bu so’zlarning har biri alohida semasiga ega. Semalar bir so’zning ma’nosini boshqa so’zlardan farqlash uchun xizmat qiladi. Semalar predmet va hodisalarga tegishli bo’lgan ichki va tashqi belgilar Yordamida aniqlanadi va ular nutq jaraYonida oydinlashadi.

**Mavzu bo’yicha savollar:**

1. Tilning leksik yarusi qanday masalalar bilan shu\ullanadi?
2. Leksikologiyaning qanday bo’limlarini bilasiz?
3. Narsa va uni atovchi so’z orasida bo\liqlik bormi?

4. So’zlar til birligi sifatida qanday vazifalarni bajaradi?
5. Leksikografiya qanday masalalar bilan shu\ullanadi?

**4-ma’ruza:**
**SO’Z MA’NOLARI O’RTASIDAGI MUNOSABATLAR**
**(2 soat).**
**REJA:**

1. So’zning semantik qurilishi. So’z ma’nolari o’rtasidagi munosabatlar.
2. Bir ma’nolilik va ko’p ma’nolilik.
3. So’zlarning shakl va ma’no munosabatlari:

- omonimlar
- sinonimlar
- antonimlar

*Tayanch so’zlar va iboralar:* leksik ma’no, lu\aviy ma’no, so’zning asosiy (to’\ri) ma’nosi, so’zning ko’chma ma’nosi, polisemiya, metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifaviy ko’chish, so’z ma’nolarining kengayishi Yoki torayishi, omonimlar, haqiqiy omonimlar, omofonlar, omograflar, omoformalar, to’liq omonimlar, to’liq bo’lmagan omonimlar, ekspressiv uslubiy bo’Yoqlar, sinonimiya, absolyut sinonimlar, semantik tip, matniy sinonimlar, uslubiy sinonimlar, sinonimik qator, sinonimika, antonimlar, leksik va grammatik antonimlar.

So’zning semantik qurilishi. So’z ma’nolari o’rtasidagi munosabatlar.

So’zning semantik qurilishi va shu so’zga xos ma’no (ma’nolar va qo’shimcha ottenkalar)dan iborat bo’ladi.

YUqorida qayd qilganimizdek, so’zning semantik qurilishi va u bilan bo\liq hodisalarni o’rganuvchi soha semasiologiya deyiladi.

Har qanday so’z shakl va ma’no butunligiga egadir: uy, daraxt, suv, havo va h.

Tildagi barcha so’zlar ma’noli bo’lsa-da, lekin ular ma’noning eng umumiy xususiyatiga ko’ra ham o’zaro farqlanadi. Masalan, tildagi so’zlarning asosiy qismi ob’ektiv borliqdagi narsa, belgi Yoki harakat xaqidagi tushunchani bildiradi: paxta, to’proq, oq ushlamoq kabi.

Boshqa so’zlar esa, ya’ni Yordamchi so’zlar (bilan, uchun, agar), shuningdek, undov va taqlidiy so’zlar (eh, uf, lip-lip) tushuncha ifodalaydi. Tushuncha ifodalaydigan so’zlargina leksik ma’noga ega bo’ladi.

YUqorida ta’kidlaganimizdek, so’zning ob’ektiv borliqdagi narsa, belgi, harakat kabilar haqidagi ma’lumot leksik ma’no deyiladi.

Leksik ma’noli so’zlar narsa, belgi Yoki harakatning konkret (aynan) o’zini emas, balki ular haqidagi tushunchani ifodalaydi. Tushuncha esa narsa, belgi, harakat kabilarning kishi ongidagi in’ikosidir.

So’zlarning leksik va grammatik ma’nolaridagi umumiylik va o’xshashlik alomatlari bilan ma’lum tipga bo’linadi. Masalan, qarindoshlikni bildiruvchi so’zlar, xursandlik va xafalikni bildiruvchi so’zlar, turli hissiYot va boshqalarga tegishli so’zlar alohida leksik-semantik guruhlarni tashkil etadi. Ularni tadqiq etishda

«semantik Yoki tushuncha maydoni» nazariyasidan, kontekstdan va leksemalarning birikuvidan (bu ko'pincha «valentlik» deyiladi) foydalaniladi.

Har bir leksik ma'no muayyan bir so'zga tegishli bo'ladi. O'zi anglatgan narsaga nisbatan olingan leksik ma'no umumlashtirish xususiyatiga egadir. Bu xususiyat lu\aviy ma'no deyiladi.

So'zlarning umumlashgan Yoki konkret ma'nolari kontekst Yordamida aniqlanadi.

So'zning semantik qurilishidagi qo'shimcha ottenkalar emosional-ekspressiv bo'Yoq va stilistik belgidir.

Emosional-ekspressiv ottenka so'zning leksik ma'no qo'shimcha tarzda sub'ektning his-tuy\usi, kayfiyati va shu kabi turli munosabatlarni ifodalash xususiyatidir.

Leksik ma'no so'zning semantik qurilishida albatta bo'ladi. Emosional-ekspressiv ma'no so'zning qurilishida bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin: novcha, naynov.

Stilistik belgi ham semantik strukturada albatta bo'ladigan komponent emas: ozod, hur, sarbast.

So'zlarning tildagi ma'nosi ularning nutqdagi ma'nosidan farq qilishi mumkin. So'zlarning tildagi ma'nosi doimiy barqaror bo'lsa, nutqdagi ma'nosi o'zgaruvchan, barqaror mavzu bilan uzviy bo\langan bo'ladi.

Leksik ma'noni narsa va hodisalar munosabatiga ko'ra quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Atash ma'nosi.
2. Ko'rsatish ma'nosi.
3. To'\ri ma'no.
4. Ko'chma ma'no (istiora-metafora, metonimiya, sinekdoxa).

Ko'rinadiki, so'zlarni to'\ri (asosiy) va ko'chma ma'noda ishlatish mumkin bo'ladi. So'zning asosiy (to'\ri) ma'nosi bevosita shu so'zning atama vazifasi bilan bo\liq bo'ladi: tulki. So'zning o'zi ifoda etaYotgan predmet Yoki tushuncha bilan bo\lanmay, shu narsaning biror belgisi Yoki holati bilan boshqa narsaning shunday belgisini ifodali qilib ko'rsatish uchun qo'llanilgan ma'nosi ko'chma ma'no deyiladi: u tulki, Erkin xo'roz.

**Bir ma'nolilik va ko'p ma'nolilik**

So'zlar bir Yoki birdan ortiq ma'noga ega bo'lishi mumkin. Bir ma'nolilik hodisasi monosemiya, ko'p ma'nolilik hodisasi esa polisemiya deb ataladi. Har ikkala hodisa ham so'zning semantik qurilishiga xos hodisalardir.

Til hodisasi sifatida monosemiyaning emas, balki polesemiyaning o'rganilishi ko'proq nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Umumiste'moldagi so'zlarning asosiy qismi ko'p ma'nolidir.

Polisemiya deyarli barcha so'z turkumlariga xos hodisadir: til-yaz:k, til—dushman asiri, til—dexqonchilik tili.

Ko'p ma'nolilik (polisemiya) ikki asosiy Yo'l bilan paydo bo'ladi: 1) so'zning yangi ma'no (ma'nolar) kasb etishi natijasida; 2) ko'p ma'noli so'zdagi Yoki ko'p ma'noli affikslar vositasida so'z yasalishi natijasida: er-zemlya, er-maydon, er-joy, er - (boshqa erda gaplashaman) o'rin, vaqt, holat.

Er so'zi dastlab, xuddi boshqa so'zlar kabi bir ma'noli bo'lgan. Uning hozirgi tildagi ma'nosi esa shu so'z semantik qurilishining taraqqiYoti natijasidir.

Polisemantik so'z qancha ma'noga ega bo'lmasin, bu ma'nolar o'zaro bo\langan bo'ladi. Xuddi shu xususiyat ko'p ma'noli so'zni omonimlardan farqlaydi. Polisemantik so'z ma'nolari orasidagi aloqa uzilsa (Yo'qolsa), omonim vujudga keladi: gap.

Til taraqqiYoti jaraYonida, uning barcha sohalarida va hodisalarida bo'lgani kabi, so'zning semantik qurilishida ham o'zgarish bo'ladi: a) yangi ma'no paydo bo'ladi: b) ma'no Yo'qoladi.

So'z ma'nosining rivojlanishi sifat va miqdor o'zgarishiga, hattoki tildan umuman tushib qolishiga olib keladi: uchmoq-ko'z, varrak-samolYot, osh-palov kabi.

So'zlar bir-biriga o'xshashligi, yaqinligi va nutq situasiyasida (kontekstda) ishlatilishiga ko'ra ma'nolarini o'zgartirishi mumkin. So'zning ko'chma ma'nolarida ishlatilishi barcha tillar uchun xosdir. So'z ma'nosining ko'chish usuli to'rt xil bo'ladi: metafora, metonimiya, sinekdoxa, funksional ko'chish (pero-\oz pati, po'lat qalam).

**So'zlarning shakl va ma'no munosabatlari.**

Til tarkibidagi leksik ma'nolar doimo o'zaro munosabatda bo'ladi. Ayrim so'zlar anglatgan ma'nolariga ko'ra bir-biriga yaqin, boshqalari esa bir-birini inkor etadi, qarama-qarshi ma'no anglatadi. Bu nuqtai nazardan sinonim va antonim so'zlar farqlanadi. So'zlar shakl nuqtai nazardan ham ma'lum munosabatda bo'ladi.

SHundan kelib chiqib, til birliklarining quyidagi tiplari mavjud: a) omonimlar: b) sinonimlar: v) antonimlar. Bulardan tashqari omofonlar, omograflar, paronimlar singari so'z tiplari ham mavjudki, ular bilan «Hozirgi o'zbek adabiy tili»ning «Leksikologiya» bo'limida batafsil tanishiladi.

Omonimlar. Talaffuzi va Yozilishi bir xil, ammo ma'nosi bir-biridan tubdan farq qiluvchi so'zlar: kuya, sir, bo\, tortmoq, Yozmoq, chopmoq.

Ularga grammatik shakllar-qo'shimchalar qo'shilganda ham omonimlik xususiyatlarini saqlab qolishi mumkin: ot-ism, ot-hayvon, Yozmoq—pisat, Yozmoq-raskrit kabi.

Omonimlarni yuzaga keltiruvchi vositalar: a) har xil talaffuzli, fonetik qurilishi farqli bo'lgan so'zlarning bir xil talaffuz etiladigan bo'lib qolishi: ot, o't (shevada ular omonim hisoblanmaydi). b) so'zlarning semantik taraqqiYoti:

dam —nafas, hordiq, bosqon. v) so'zlarning talaffuz jihatidan tasodifan mos kelib qolishi bank-banka.

Sinonimlar. Fonetik qurilishi (shakli) har xil ma'nosi bir xil yaqin bo'lgan so'zlardir: aylanmoq-kezmoq - sayr qilmoq, pedagog - muallim, o'qituvchi.

Bir umumiy (birlashtiruvchi) ma'nosi bilan o'zaro bo\lanuvchi so'zlar guruhi sinonimik qator deyiladi.

Ko'p ma'noli so'z har bir ma'nosi bilan boshqa-boshqa sinonimik qatorda bo'lishi mumkin: bitirmoq.

1) bitirmoq—tugatmoq—tugallamoq, tamomlamoq:

2) bitirmoq—bajarmoq — ado etmoq, o'rinlamoq:

3) bitirmoq—tamomlamoq—tamom qilmoq - sop qilmoq - Yo'qotmoq—Yo'q qilmoq.

Sinonimik qatorni tashkil etuvchi so'zlar qaysidir jihatlari bilan bir-biridan farqlangani uchun tilda alohida leksik birlik sifatida yashash imkoniyatiga ega.

Sinonimik qatordagi so'zlar asosan quyidagi hodisalar nuqtai nazaridan o'zaro farqlanadilar:

1. Emosional-ekspressiv nuqtai nazaridan: *xunuk—badbashara.*

2. Uslubda farqlanadi: odam - kishi - inson, bashar.

3. Sinonimik qatordagi so'zlar hozirgi adabiy tilga munosabati nuqtai nazardan o'zaro farqlanishi mumkin: muallim-o'qituvchi-domla-afandi.

4. Sinonimik qatordagi so'zlar ma'noni qaydarajada ifodalashi jihatdan ham o'zaro farqlanadi: qiziq-\alati - antiqa-ajoyib -alomat. Neytral: qiziq. Kuchli: ajoyib, alomat, antiqa. YAxshi: durust, tuzuk (kuchsiz).

Paydo bo'lishi:

1. So'z o'zlashtirish orqali.

2. YAngi ma'noli so'zlar: vazifa — topshiriq. Antonimlar. O'zaro qarama-qarshi, zid ma'noli so'zlar. Birdan ortiq so'zning o'zaro antonimik munosabati ma'nodagi zidlikka asoslanar ekan, ko'p ma'noli so'z har bir ma'nosi bilan ayrim-ayrim so'zlarga antonim bo'lishi mumkin: qattiq—yumshoq, qattiq—saxiy.

Bir so'z o'zaro sinonim so'zlar bilan Yoki o'zaro sinonim so'zlar boshqa sinonim so'z bilan antonimik munosabat hosil qiladi.

Xafa-xursand-xushvaqt-xurram-xushnud.

CHiroyli - go'zal - xusndor - xusnli - xushro'y - ko'xli - ko'rkam - barno - suluv – zebo-latofatli — sohibjamol, xunuk -badbashara - badburush - badqavoq - tasqara - bedavo – ta'vi beo'xshov - beso'naqay - sovuq - badsurat.

Antonimlar bir turkumga oid so'zlar bilan cheklanadi.

Omofon: tub -tuf, Yod -Yot, mard-mart.

Omograf: tol - daraxt: tol - qurilish materiali: tok-uzum, tok -elektr toki.

Paronim: fakt-pakt: afzal-abzal: amr-amir.

**Mavzu yuzasidan savollar:**

1. Polisemiya va monosemiya nima?
2. So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlarini ayting.
3. Sinonim, sinonimik qator deb nimaga aytiladi?
4. Antonim nima?
5. Omonim deb nimaga aytiladi va ularning polisemantik so'zlardan farqini tushuntiring.

## 5-ma'ruza:
## LUG'AVIY BIRLIKLARNING MAVZU BO'YICHA TURLARI
## (2 soat)
## REJA:

1. Terminlar.
2. Frazeologizmlar.
3. Tabu va evfemizm.
4. So'zlar etimologiyasi.

*Tayanch so'zlar va iboralar:* lu\aviy birliklar, tabu, evfemizm, lingvistik tabu, termin (atama), tovush strukturasi, tilning ichki resurslari, terminologik lu\atlar,

frazeologizmlar, iboralar, frazeologik qo’shilmalar, frazeologik butunliklar, frazeologik chatashmalar, frazeologik antonimlar, frazeologik omonimiya, so’zning tashqi formasi, deetimologazasiya, xalq etimologiyasi, kichraytirish affiksi, lu\at, aktiv va passiv lu\at, dialektizmlar, sheva, terminlar.

O’tilgan darslardan ma’lumki, tilning lu\at tarkibiga aloqador barcha birliklar (masalan, so’zlar, frazeologizmlar) lu\aviy birliklar deyiladi.

Lu\aviy birliklar anglatgan ma’nolarining umumiy xususiyatlaridan kelib chiqib, ma’lum tematik turlarga bo’linadi. Bunda asosiy vazifani birliklarning lu\aviy ma’nosi bajaradi. Leksik ma’no esa yuqorida ta’kidlaganidek, umumlashtirish xususiyatiga egadir.

O’zbek tilidagi lu\aviy birliklarning ayrim tematik turlarini ko’rib o’tamiz.

Terminologiya. Tilda shunday so’zlar borki, ular fan, texnika, adabiYot, san’at va madaniyatga oid tushunchalarni ifoda qilib, bir ma’noda ishlatiladi. Bunday so’zlar terminlar deb ataladi. Har bir sohaga oid terminlar birlashtirilib terminologiya deb yuritiladi. Masalan, tilshunoslik fani o’z terminlariga ega: unli, undosh...

Terminlarning ko’p ma’noda ishlatilishi fan uchun ijobiy xususiyat sanalmaydi. CHunki bir terminning turli fanlarda har xil ma’nolarda qo’llanishi ba’zan noaniqliklarga olib kelishi mumkin.

Terminlarning asosiy (ma’nolari) belgilari ularning bir ma’noliligi (monosemantik ekanligi), neytral, aloqa emosional -ekspressiv bo’Yoqqa ega emasligi, biror fan va texnika sohasiga tegishli ekanligi bilan izohlanadi. Ba’zan terminlar badiiy asarlardagi stilistik talabga ko’ra ishlatilishi mumkin.

Termin uchun kontekstning bo’lishi shart emas.

Har bir fanning o’z terminlar tizimi mavjud. Terminlar bir-ikki so’zdan va so’zlar birikmasidan iborat bo’lishi mumkin.

Kelib chiqishi jihatidan terminlar har bir tilning ichki resurslariga xos va boshqa tillardan o’zlashgan bo’lishi mumkin. Ichki resurslarga misol: to’ldiruvchi, aniqlovchi, hol.

O’zbek tilida chet tillardan o’zlashgan terminlar juda ko’p. Masalan. medisina, biologiya, ximiya, fizika sohalarida.

Ko’pgina terminlar ular ifodalaydigan tushuncha va jismning nomi bilan butunlay bo\lanmaydi. Masalan, gagarinit, pravdit.

Har bir fan va texnika sohasiga tegishli alohida terminologik lu\atlar mavjud: tilshunoslik, adabiYotshunoslik va boshqa fan sohalarida. Ular bilan tilshunoslikning leksikografiya sohasida atroflicha tanishtiriladi.

Frazeologizmlar. Tilning lu\at tarkibiga faqatgina so’zlar emas, balki tur\un bo’lib qolgan so’z birikmalari ham kiradi. Tarkibi ancha murakkab bo’lgan tur\un birikmalar frazeologizmlar Yoki frazeologik birikmalar (iboralar) deb ataladi.

Tilshunoslikning frazeologizmlarni ilmiy tadqiq qiluvchi sohasi frazeologiya (grekcha rhrasis— ibora logos-so’z, tushuncha, ta’limot) deyiladi.

Frazeologizmlar ham tilshunoslikning leksikologiya bo’limi doirasida o’rganiladi.

Frazeologizmlarning tarkibida nechta so’z ishtirok etishiga qaramasdan, ular yagona umumiy ma’no bilan birlashadi va emosional-ekspressiv ma’no ifodalaydi. Frazeologizmlar badiiy adabiYotlarda obrazli va ta’sirchan vosita sifatida mahsuldor qo’llaniladi.

Frazeologizmlar uch xil bo'ladi:
- frazeologik qo'shilmalar.
- frazeologik butunliklar.
- frazeologik chatishmalar.

Tarkibidagi bir so'z to'\ri, ikkinchi so'z esa ko'chma ma'noda bo'lib birikkan iboralar frazeologik qo'shilmalar deyiladi: xordiq chiqarmoq, so'zida turmoq, holdan toymoq kabi. Tarkibidagi so'zning ma'nosi va grammatik jihati birikib, umumiy ko'chma ma'no beruvchi iboralar frazeologik butunliklar deb ataladi: ko'kka ko'tarmoq - maqtamoq, eti suyagiga Yopishmoq - oz\in kabi.

Tarkibidagi so'zlarning ma'nolari bilan ibora ifoda etgan ma'no o'rtasida hech qanday leksik aloqa sezilmagan frazeologizmlar frazeologik chatishmalar deyiladi: sichqonning inini ijaraga olmoq, sichqonning ini ming tanga bo'lmoq. OYo\ini tirab olmoq kabi.

Frazeologik qo'shilma va butunliklar so'zlarni o'zaro birikishi Yo'li bilan yasalgan yaxlit iboralar bo'lib, ularning tarkibidagi ba'zi komponentlarni almashtirish mumkin. Biroq frazeologik chatishmalarning komponentlarini almashtirish mumkin bo'lmaydi.

Frazeologizmlar badiiy adabiYotda obrazli va ta'sirchan vosita sifatida ko'p qo'llanadi:

HushYor boq, to foniy umr kechadi,
Tengrangda turfa xil toshlar uchadi,
Biri qora hasad Yo \araz toshi,
Biri Yovuz tuhmat Yoki maraz toshi...
Ular sabr —kosang to'ldirmoq bo'lar,
Ular umr gulin so'ldirmoq bo'lar.
(A.Oripov).

Xuddi leksikada bo'lgani kabi, frazeologiyada ham omonimiya, sinonimiya, antonimiya kabi hodisalar mavjud.

**Omonimiya:** boshiga ko'tarmoq; **sinonimiya:** kayfi buzuq - ta'bi tirriq: **antonimiya:** ko'ngli joyiga tushmoq - yuragiga \ul\ula tushmoq kabi.

**Polisemiya:** o'ziga kelmoq, hushiga kelmoq: qo'lga tushmoq - asr tushmoq kabi.

Frazeologizmlarda semantik tomondan umumlashgan ko'chma ma'no ifodalansa, grammatik tomondan ularning butunligi komponentlarning o'zaro birikuvi va gapda ham shu tartibni saqlab qolishi uchun izohlanadi.

**Tabu va evfemizm.** Tabu so'zi polineziya tilidan (Tinch okeanida yashovchi ko'chmanchi elatlar tili) olingan bo'lib, shaxsiy va diniy odatlar jihatidan biror narsani ma'n etish demakdir.

O'tmishdan biron kishi o'lganda marhumning nomini aytish ma'n etilgan. Tabu etnik tushuncha bo'lib, qandaydir predmetning nomini aytishni ma'n qilishdir. Bunday odatning tilga tadbiq etilishi bilan lingvistik tabu yuzaga kelgan. Masalan, ilon - qamchi dasta, ar\amchi, oYoqsiz.

Odam nutq faoliyatida nutqiy normalarga rioya qilishi lozim. Ahloqiy va madaniy jihatdan qo'llanishi taqiqlangan Yoki noqulay deb topilgan so'zlar o'rniga boshqa so'z va iboralarning qo'llanishi evfemizlar (graekcha eupphemco «yaxshi», «mayin gapiraman» ma'nosida) deb ataladi. Masalan: o'lmoq, vafot etmoq, oYoq cho'zmoq, chin dunYoga ketmoq.

Evfemizlarning ma'lum qismi tabu bilan bo\liq bo'ladi. Evfemizmlarning ko'pchilik qismi axloqiy va madaniy jihatdan aytilishi noqulay deb topilgan so'zlar o'rnida qo'llanuvchi so'z va iboralardir. Masalan: qizamiq-oymoma, chechakgul: sil-uzun o\riq.

Ba'zan olmoshlar ham evfemizm sifatida qo'llaniladi: u qilding, bu qilding, ishni rasvo qilding.

Tabu va evfemizmlardan adabiy va badiiy asarlarda muhim tasviriy vosita sifatida foydalaniladi.

**Etimologiya.** So'zlarning «biografiyasi»ni, kelib chiqish tarixini o'rganuvchi soha etimologiya (grekcha etymon-haqiqiy, logos - ta'limot) deyiladi.

So'zlarning haqiqiy va birinchi asl ma'nolari va shakllari til tarixi, boshqa tillar va dialektlardagi shu so'z to'\ri kelgan o'zakka ega bo'lgan so'zlar bilan qiYoslash asosida aniqlanadi. Bunda so'zlarning avvalgi ma'nosi va formalari chuqur o'rganiladi. So'zlarning kelib chiqish tarixi, arxeologiya, geografiya, antrapologiya, madaniyat va san'at kabi qator fanlar Yordamida aniqlanadi.

«Etimologiya» termini tilshunoslikda ikki ma'noda ishlatiladi. Leksikologiyaning ma'lum tilda so'zlarning kelib chiqish tarixini o'rganuvchi sohasi ma'nosida hamda biror so'zning birinchi asl ma'nosi va shakli ma'nosida.

YAngi so'zlarning kelib chiqishini aniqlash oson, lekin eski so'zning qachon paydo bo'lgani va qaysi tildan Yoki shevadan olinganini bilish ancha qiyin. Biror so'zning kelib chiqishini aniqlashda shu so'z qardosh tillardagi so'zlarning tovush qurilishi va ma'nolari bilan qiYoslanadi. Misollar: arxitektor - quruvchi - haykal quruvchi va binoning loyihasini chizuvchi.

**Mavzu yuzasidan savollar:**

1. Termin nima?
2. Frazeologazm va uning turlari xaqida tushuncha bering.
3. Frazeologizmlardagi sinonimiya, antonimiya va omonimiya hodisalari.
4. Tabu va evfemizm nima? Ularga misollar ayting.
5. Etimologiya bo'limi haqida ma'lumot bering.

## 6-ma'ruza: TILNING LUg'AT TARKIBI (2 SOAT).

**REJA:**

1. Til lu\at tarkibining taraqqiYoti.
2. Neologizmlar, arxaizmlar va istorizmlar.
3. Leksikografiya, lugatshunoslik va uning vazifasi. Lu\at turlari.

***Tayanch so'zlar va iboralar:*** neytral so'zlar, stilistik ma'noda qo'llangan so'zlar, umumadabiy til leksikasi, badiiy uslub, publisistik uslub, rasmiy uslub, so'zlashuv uslubi, badiiy tasvir vositalari, nutq madaniyati, tilning umumiy qonuniyatlari, neologizmlar, istorizmlar, arxaizmlar, grammatik usul, fonetik usul, semantik usul, so'z o'zgarishi affiks, prefiks, konversiya, purizm, kalkalash, so'z o'zlashtirish, lu\at, leksikografiya, leksikograflar, kartoteka, ensiklopedik lu\at, filologik lu\at, umumiy

ensiklopedik lu\at, morfem lu\at, chappa lu\at, terminologik lu\at, teskari lu\at, morfema so'zning material strukturasi, morfemaning variantlari Yoki allomorflar, o'zak morfema, affiksal morfema, so'zlar orasida grammatik munosabatlar, soddalashuv, qayta tuzilish, murakkablashuv, yangi so'z hosil qilish, sinxronik so'z yasalish strukturasi, diaxronik so'z yasalish strukturasi, so'z yasash uyasi.

**Til lu\at tarkibining taraqqiYoti**

Ta'kidlaganimizdek, tilning leksikasi tildagi barcha so'zlarni o'z ichiga oladi. Tilda bor bo'lgan barcha so'zlar uning lu\at tarkibini tashkil etadi. Tilda bor bo'lgan so'zlarning hisobi aniq emas. Eng mukammal tuzilgan lu\atlar ham ularni qamrab ololmaydi.

So'zlar ishlatilishiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi: aktiv va passiv. Xalqning turli guruhlari ham o'z faol leksikasiga ega bo'lishi mumkin.

+o'llanishi ma'lum bir territoriya bilan chegaralangan so'zlar dialektizmlar deb ataladi va ular ham tilda alohida guruhni tashkil qiladi: shoti, narvon, zangi.

Ekspressiv bo'Yoqqa ega bo'lmagan so'zlar neytral so'zlar deyiladi.

Ekspressiv bo'Yoqqa ega bo'lgan so'zlar stilistik ma'noda qo'llangan so'zlar deb ham yuritiladi.

Tilning lu\at tarkibidagi so'zlar, asosan, to'rt guruhga bo'linadi:

1) umumso'zlashuv nutqiga xos leksika;
2) dialektizmlar;
3) adabiy - kitobiy leksika;
4) umumadabiy leksikasi.

Umumiy so'zlashuv nutqiga xos so'zlar barcha usulubda ishlatiladi.

**Besh uslub.** Neytral so'zlar. Terminlar, ilmiy uslub, so'zlashuv uslubi, badiiy uslub.

Har bir tilning lu\at tarkibi nutq madaniyati xazinasini tashkil etadi va turli uslublarga xos bo'lgan ifoda vositalarini boyitishga olib keladi.

Jamiyat rivoji, til taraqqiYoti, ishlab chiqarish, fan, madaniyat. YAngi so'zlar, iboralar. Semantik o'zgarishlar, eskirishlar.

Buning barcha tillar uchun umumiy qonuniyat ekanligi.

Tilning rivojlanishi har bir tillarning ichki resurslari va boshqa tillardan so'z o'zlashtirish hisobiga bo'ladi.

Til lu\at tarkibi taraqqiYotining asosan to'rt usuli mavjud: grammatik, fonetik, semantik, so'z o'zlashtirish usuli.

1. Grammatik usul tilning so'z yasash modellari va so'z yasash usullariga asoslanadi. So'z qo'shish, affiksasiya usul: muzYorar, temir Yo'l, so'zboshi, badavlat, boshliq, temirchi.

2. Fonetik usul: so'z tarkibidagi tovush va ur\u o'zgarishi: bozor -mozor, juda-judo, yangi, yigitcha, olma, qatlama.

3. Semantik usul: so'z ma'nolari o'zgaradi: arafa, qiYomat, turdosh otlar, konversiya, urush, tergov, o'qish.

4. So'z o'zlashtirish. DunYoda boshqa til vositalaridan o'zlashtirmagan bironta «sof» til Yo'q. O'zbek tilida chet so'zlarning salmo\i katta.

Fan va texnika taraqqiYoti natijasida aloqalar kuchayadi, umumiylik yuzaga keladi, lu\at boyligida baynalminal elementlar ko'payadi.

Ilmiy texnika taraqqiYoti natijasida tilning umumiy fondi kengayib boradi. Nutq madaniyati talabini hisobga olish lozim.

**Purizm -chet** so'zlarni ishlatish. Kalkalash.

Neologizmlar, arxaizmlar va istorizmlar.

Fan va texnika taraqqiYoti natijasida paydo bo'lgan yangicha munosabatlar, yangi narsa, hodisalarni ifoda qilish, ishlab chiqarishni jadallashishiga aloqador tushunchalarni belgilash maqsadida yaratilgan yangi, hali o'zlashtirib ketmagan so'zlar neologizmlar deb ataladi.

Paydo bo'lishi: 1. Ichki resurs. 2. Tashqi ta'sir: Yo'ldosh, fazogir, kosmodrom, kosmanavt kabi.

Neologizmlar tarixiydir. Bir davr uchun neologizm bo'lgan so'zlar keyinchalik neologazmlik belgisini Yo'qotib, faol leksik qatlamga o'tishi mumkin: traktor, poezd, vagon, mashina.

Turlari: semantik, leksik, grammatik.

Semantik neologizmlar yangi ma'noli so'zlardir: bo\cha.

Leksik-grammatik neologizmlar so'z yasash vositalari Yordamida hosil qilinadi: dilparast, ishqparast.

**Istorizmlar** o'tmishda mavjud bo'lgan narsa - hodisalarning nomlari: qozi, ellikboshi, mingboshi, taxt, kanizak, cho'ri.

**Arxaizmlar** bugungi kunda mavjud bo'lgan narsa-hodisalarning eski nomlaridir: ta'til, dudoq, ulus, firqa, tilmoch, bitik. Ularda sinonimlik hodisasi mavjud.

**Leksikografiya,** lu\atshunoslik va uning vazifasi.

## Lu\at turlari

So'zlarning biron maqsadda to'planib, tartibga solingan yi\indisi lu\at deyiladi.

Lu\at tuzishning nazariy va amaliy prinsiplari xaqidagi soha leksikografiya (grekcha. lexikos—lu\at, ggarho — Yozaman) deyiladi. Lu\at tuzuvchi mutaxasislar leksikograflar deyiladi.

Lu\atlar dastlab ikki asosiy tipga bo'linadi:

1. Umumiy lu\atlar.
2. Maxsus lu\atlar.

**Umumiy:** ikki tillik, izohli, imlo.

**Maxsus lu\atlarga** terminalogik, sinonimlar, dialektologik, frazeologik, orfoepik kabilar kiradi. Lu\atlar yana ikki turga bo'linadi:

a) ensiklopedik

b) filologik

**Ensiklopedik** lu\atlarda fan, texnika va madaniyatning barcha sohalariga oid tushunchalar izohlanadi. Ular ham ikki xil bo'ladi: umumiy ensiklopedik lu\at va biror sohaning ensiklopedik lu\ati: «Salomatlik ensiklopediyasi», «Uy — ro'z\or ensiklopediyasi».

**Filologik** lu\atlar ikki xil: umumiy va maxsus.

Umumiy lu\atlar imlo, izohli, tarjima, bir tilli, ikki-uch tilli lu\at kabilar;

Maxsus lu\atlarga etimologik, morfem, frazeologik, sinonim, omonim, orfoepik, chappa, atoqli otlar, ismlar, joy nomlari, Yozuvchilar, ularning asarlari lu\ati, chastotali lu\at kabilar kiradi.

Soha lu\atlari ichida eng ko'p tarqalgani terminologik lu\atlardir:

H.Hasanov - «Geografik terminlar lu\ati» - 1964.

O.Usmon - «Ijtimoiy — siYosiy terminlar lu\ati» - 1976.

Hozirgi tilshunoslikda tezaurus lu\at (grekcha. thesauros-manba) Yoki ideografik lu\at tuzish ustida ish olib borish.

Lu\at-so'z xazinasi, undan o'rinli va maqsadga muvofiq foydalanish inson bilimini kengaytirish, lu\at boyligini oshirish hamda fikrni to'\ri va ravon ifodalashda muhim omildir.

**Mavzu yuzasidan savollar:**

1. Til lu\at tarkibining boyish Yo'llari.
2. Ekspressiv belgiga ega bo'lgan va ekspressiv bahoga ega bo'lmagan so'zlar deganda nimani tushunasiz?
3. Til lu\at tarkibini tashkil qiluvchi asosiy guruhlarga qaysilar kiradi?
4. Neologizmlar, istorizmlar va arxaizmlar nima?
5. Lu\at nima? qanday lu\atlarni bilasiz?

## 7-ma'ruza: GRAMMATIKA
## (6 SOAT)

**REJA:**

1. Grammatika va uning bo'limlari haqida ma'lumot.
2. Grammatik vosita, shakl va ma'no munosabatlari.
3. So'zning grammatik shakllari.
4. Grammatik kategoriyalar:
- jins
- son
- kelishik
- zamon
5. Xulosa.

***Tayanch so'zlar va iboralar:*** tilning grammatik qurilishi, nutqning grammatik strukturasi, morfologiya, sintaksis, kategorial va nokategorial shakllar, so'z birikmasi, gap, tarixiy grammatika, falsafiy grammatika, umumiy grammatika, qiYosiy grammatika, tasviriy grammatika, transformasion grammatika, logik va grammatik kategoriyalar, struktural tilshunoslik, til sistemasini (tizimini) tadqiq qilish metodlari, distributiv analiz (tahlil) metodi, til elementlari, distribusiya, kontrast, distribusiya, bevosita tashkil etuvchilarga ajratish metodi, transformasion analiz metodi, yadro gaplar, sintaktik metonimiya, leksik ma'no, grammatik ma'no, kelishik qo'shimchalari: fe'l zamonlari, sifat darajalari, affiksasiya, egalik affikslari, kelishik shakllari, intonasiya (ohang), melodika, ur\u, takror, reduplikasiya, ichki fleksiya, suppletivizm.

## Grammatika haqida tushuncha

Grammatika tilshunoslikning tarkibiy qismi bo'lib, tilshunoslikning boshqa sohalari bilan aloqasi ko'p qirrali va murakkabdir.

O'tmishda grammatika to'\ri Yozish va gapirishga Yordam beruvchi qonun va qoidalarni o'rgatadi deb tushunilgan. Bugungi kunda grammatika termini talshunoslikda ikki ma'noda qo'llaniladi. Grammatika deyilganda, birinchidan, tilning grammatik qurilishi, ikkinchidan, tilning grammatik qurilipsh haqidagi fan tushuniladi. Ikkinchi ma'noda grammatika so'zlarning ma'lum turkumlarga bo'linishi, ularning har biriga xos formalar, nutqning grammatik qurilishi haqidagi fandir.

Ma'lumki, til kishilik jamiyatida fikr almashish quroli sifatida xizmat qiladi. Kishilarga fikr almashish imkoniyatlarini yaratib berish uchun har bir til ma'lum miqdordagi grammatik vositalarga ega bo'lishi kerak. Lekin gapning hosil bo'lishi uchun so'zlarning o'zi kifoya qilmaydi. Gapda so'zlar har bir tilning grammatik va fonetik qoidalari asosida birlashib, ma'lum bir fikrni ifodalaydi.

Tilning grammatik qurilishi o'z kategoriyalari va birikmalariga ega. Bular so'z formalari, so'z birikmalari va gaplardir.

Grammatika ikki qismdan iborat: morfologiya va sintaksis. Morfologiyada so'z turkumlari, uning kategorial va nokategorial shakllari o'rganiladi. Sintaksis nutqning grammatik qurilishi xaqidagi ta'lim bo'lib, so'z birikmasi, gap va undan yirik bo'lgan birikmalarni o'z ichiga oladi.

## Grammatika turlari

Grammatikaning bir necha turlari mavjuddir:

- tarixiy grammatika
- falsafiy grammatika
- umumiy (universal) grammatika
- qiYosiy grammatika
- tasviriy grammatika
- transformasion grammatika.

Tarixiy grammatika biror bir tilning grammatik qurilishda ro'y bergan o'zgarishlar taraqqiYotini o'rganadi.

Falsafiy grammatikaning asosiy vazifasi til va tafakkur, logik va grammatik kategoriyalarning aloqa imkoniyatlarini o'rganadi.

Umumiy grammatika qaysi til oilasiga mansub ekanligidan qat'iy nazar, hamma tillarga xos bo'lgan umumiy xususiyat va qonuniyatlarni belgilaydi.

+iYosiy grammatika tillarning grammatik tizimini bir-biri bilan taqqoslab, qiYoslab, ularga xos umumiy va xususiyat belgilarni o'rganadi.

+iYosiy grammatika o'z navbatida qiYosiy-tarixiy va tipologik-qiYosiy grammatikalarga bo'linadi. Rasmus Rask (1787-1832) «qadimgi island tili va island tilining paydo bo'lishi». YA.Grimm «Nemis tili grammatikasi» (1819).

Tasviriy (deskriptiv) grammatika biror konkret til grammatik qurilishining hozirgi (sinxron) holatini o'rganadi. Deskriptiv grammatikada til birliklari va ularning mohiyatini aniqlashda formal metodlardan foydalanadi. Deskriptiv grammatikada tilning qurilishini tahlil qilish jaraYonida ma'no e'tiborga olinmaydi.

Struktural tilshunoslik tilning ichki qurilishi. Til sistemasini tashkil etgan elementlarning orasidagi munosabatlar, oppozisiyalarni o'rganishga katta e'tibor

beradi. Struktural tilshunoslik tilni o’rganishda va fanning predmetini belgilashda o’ziga xos yangi oqimdir.

Til tizimini tadqiq qilishning ikki metodi mavjud: destributiv analiz metodi va tranformasion analiz metodi.

Birinchi metod. L.Blumfeld. «Til», Z.Xarris. «Struktural tilshunoslikning metodlari» (1951). Bu metod tilshunoslikda keng qo’llanilmoqda. U til birliklarning (fonema, morfema, so’zlar) distribusiyasi (qo’llanish o’rni, joylashishi) turlicha bo’ladi, degan nazariyaga asoslanib, til tizimini tashkil etgan elementlarning o’zaro birikishi qonun-qoidalarini o’rganadi. U birmuncha ob’ektiv metoddir.

Distributiv metod Yordamida til birliklari aniqlanadi va bu metod fonema, uning variantlari, morfemalarni, allamorflarni aniqlashga Yordam beradi. Ammo sintaksisga xos bo’lgan masalalarni o’rganishga bu metodning imkoniyatlari cheklangan.

SHuning uchun tilda bevosita tashkil etuvchilarga ajratish metodi paydo bo’ldi. Bunda gap bevosita ikki qismga ajratib tekshiriladi. Masalan, ot qism va fe’l qism. Bu metod distributiv tahlilni o’z ichiga olgan holda sintaktik birliklarni analiz qilishda qo’llaniladi, bu formal metoddir.

Bu metodning qiyinchiliklari.

1. Morfologiya bilan sintaksis aralashtirib yuboriladi, so’z birikmalari va gap bir-biridan farqlanmaydi.

2. Bir xil strukturaga ega bo’lgan, ammo mazmun jihatdan har xil bo’lgan so’z birikmalari bu metod bo’yicha bir xil analiz qilinadi. Masalan., To’yga ko’p keksa erkaklar va aYollar kelishdi jumlasini analiz qilganda, keksa so’zining qaysi so’zga tegishli ekanligini aniqlash qiyin (erkaklargami Yoki aYollarga).

3. Bu metod til sintaktik yarusining elementar birligini va sodda sintaktik birliklarning tashkil topishi va tarixini ko’rsatib berolmaydi.

Bevosita tashkil etuvchilarga ajratish metodining yuqorida ko’rsatib o’tilgan kamchiliklarni bartaraf etish ehtiYoji transformasion analiz metodlarining yaratilishida asosiy omil bo’ldi.

Transformasion grammatika hozirgi tilshunoslikda, xususan, sintaktik va stilistik izlanishlarda eng ko’p qo’llanilaYotgan metod Yordamida ish ko’radi.

Ma’lumki, distributiv metod Yordamida til yaruslarining birliklari: fonema, morfema ularning qo’llanish o’rinlari aniqlansa, bevosita tashkil etuvchilarga ajratish metodida esa bu gapning ichidagi sintaktik munosabatlar o’rganiladi.

Transformasion metodning asosiy mohiyati quyidagilardan iborat:

Har bir tilda son-sanoqsiz gaplar mavjud va bu yangi gaplar tinglovchi tomonidan to’\ri tushuniladi. Tabiiyki quyidagi savol tu\iladi: qanday qilib nutq eshituvchi shu paytgacha eshitmagan yangi gaplarni tushunadi? Buning asosiy sababi shundan iboratki, nutqda mavjud bo’ladigan elementlar sintaktik modellar asosida paydo bo’ladi. Lekin bu sintaktik modellar (yadro gaplar)ning soni chegarali va amalda faqat bir necha bo’lishi mumkin. Masalan. ot qism - fe’l qism.

Gapning elementar, sodda modellari transformasion grammatikada yadro gaplar deb ataladi. Bu model asosida tuzilgan gaplar o’sha yadro gapning transformasi hisoblanadi.

Transformasion analizning asosiy maqsadi tilda mavjud bo'lgan son-sanoqsiz gaplarning ma'lum sondagi sintaktik modellari - yadro gaplardan tuzilganini o'rganadi.

Transformasion metodning asosida til tizimi sintaktik yarusning bir necha kichik sistemalaridan tashkil topadi, degan \oya Yotadi. Bulardan biri asosiy yadro gap bo'lib, ikkinchisi esa yadro gaplardan hosil bo'lgan transformalardir. Transformalarning yadro gaplardan hosil bo'lishini o'rganish jaraYoni transformasion analiz deyiladi.

**So'zning leksik va grammatik ma'nosi**

Leksik ma'no individual ma'no hisoblanadi, bir ma'no bir so'z bilan bo\langan bo'ladi. Grammatik ma'nodan leksik ma'no tubdan farq qiladi. U leksik ma'noga o'xshab tashqi dunYodagi narsa va voqealarni aks ettirmaydi va individual xususiyatga ham ega bo'lmaydi. Ular umumiy ma'nolardir.

Leksik va grammatik ma'nolar o'z xususiyatlariga ko'ra bir-biridan farq qilsa ham, nutqda bir-biri bilan uzviy bo\langan. Biri ikkinchisisiz voqe bo'lmaydi. Grammatik ma'no leksik ma'noga qo'shimcha ravishda namoYon bo'ladi va turli grammatik munosabatlarni ifodalaydi: Bir so'zning ikkinchi so'zga munosabatini, so'zning shaxsga, songa, zamonga va hakozolarga bo'lgan aloqasini ko'rsatadi. Masalan: uy, nok, kitob, tulki, neytron, bo'\in. Ularda olti leksik ma'no, ammo bir grammatik ma'nosi bor. Predmetlik, birlikda, bosh kelishikda.

Odatda leksik ma'no konkret, real: grammatik ma'no umumiy bo'ladi.

Grammatik ma'no afiksasiya, intonasiya, melodika, ur\u, takror, Yordamchi so'zlar hosil qiluvchi vositalar:

**Affiksasiya** ba'zi olimlarning fikricha, tillarda eng ko'p tarqalgan vositalardir ular ikki turga ajratiladi: forma yasovchi affikslar, so'z o'zgartiruvchi affikslar. Affikslar hamma tillarda bir xil emas.

**Intonasiya.** U o'z ichiga melodika bilan ur\uni oladi. Bu vositalar ham tilda grammatik ma'no ifodalash uchun xizmat qiladi.

**Melodika.** Melodika deganda, ton balandligining o'zgarishi tushuniladi. U asosan xitoy-tibet tillarida katta ahamiyatga egadir. Bu tillar uchun affiksasiya, umuman olganda, Yot narsadir. Xitoy-tibet tillari oilasiga kiruvchi xitoy tilida to'rtta ton mavjud bo'lib, so'zning ana shu tonlardan qaysi biri Yordamida talaffuz qilinishiga qarab so'zning ma'nosi o'zgaradi. Masalan: ma-ona, kanop -chumoli, so'kinmoq.

**Ur\u.** O'zbek va ingliz tillarida ur\u so'zlarning leksik ma'nolarini ajratishda ishlatiladi: yangi (sifat), yangi (ravish).

**Takror.** Takror biror grammatik ma'noni ifodalash uchun bir so'zni ikki marta takrorlash bo'lib, u lingvistikada reduplikasiya (lat. - ikkilanish) deb yuritiladi. Masalan, malay tilida - orang - odam, orang - orang - odamlar, xitoy tilida sin - yulduz, sin -sin - yulduzlar. O'zbek tilida sariq - sap-sariq, ko'k-ko'm-ko'k.

**Ichki fleksiya.** U turli grammatik ma'nolarni ifodalash uchun so'z tarkibidagi tovushlarning o'zgarishidir. Masalan: arabcha-kitob - kutub, kataba-kutuba.

**Suppletivizm.** Suppletivizm deganda, bir so'zning turli grammatik formalarining har xil so'z o'zaklaridan yasalishi tushuniladi: ya - menya, mo' — nas.

**YOrdamchi so'zlar.** YOrdamchi so'zlar Yoki funksional so'zlar ham grammatik ma'no ifoda qilish uchun qo'llaniladi. Bunday so'zlar boshqa so'zlarning tarkibiy qismi emasligi bilan affikslardan farq qiladi:

Umumiy tilshunoslik nuqtai nazaridan tillarda Yordamchi so'zlar turli-tumandir. Ularga ko'makchi, bo\lovchi, artikl, predlog, Yordamchi va bo\lovchi fe'llar, yuklamalar kiradi. Bu so'zlar grammatik kategoriyalar ifodalashda qatnashishi Yoki qatnashmasligi nuqtai nazardan ikki qismga bo'linadi:

a) so'zlarni analitik formasi kengaygan shaklini yasashda ishtirok etuvchi Yordamchi so'zlar:

b) bu funksiyani bajarmaydigan Yordamchi so'zlar. YOrdamchi so'zlarning birinchi gruppasiga artikllar, Yordamchi fe'llar, ba'zan Yordamchi so'zlar kiradi.

YOrdamchi so'zlarning ikkinchi gruppasiga bo\lovchi, ko'makchi, predlog va ba'zan yuklamalar kiradi.

O'zbek tilida sof ko'makchi fe'llar Yo'q. Ayrim mustaqil fe'llar, masalan, bo'l, ol, qo'y, bor, kel kabilar ko'makchi fe'l vazifasida kelib turli-tuman ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan, bo'l ko'makchi fe'li tugallik, to'la bajarilishi ma'nosini ifodalaydi: Zulfiya topshiriqlarni bajarib bo'ldi.

Grammatik ma'no anglatishning yana bir vositasi so'z tartibidir. So'z tartibi xitoy-tibet tillari oilasiga kiruvchi tillarda va qurilishi shu tillarga o'xshash bo'lgan boshqa tillarda juda muhimdir.

- Masxaraboz masxarabozni masxaraboz deb atadi.

Masxaraboz so'zi gapda uch xil vazifani bajarmoqda: ega, vositasiz to'ldiruvchi, vositali to'ldiruvchi.

**Sintaktik va analitik vositalar.** Grammatik ma'nolarni ifodalovchi til vositalari turli-tumandir. Tilshunoaslikda bu vositalar ikki katta gruppaga ajratilgan: sintaktik vositalar, analitik vositalar.

Sintaktik vositalarga affiksasiya (prefeks, suffekslar), ichki fleksiyaning hamma turlari (arab tiliga xos xususiyatlar), hind-evropa tillari so'z o'zagidagi unlining o'zgarishi, suppletiv formalar kiradi.

Analitik vositalar grammatik ma'no anglatuvchi Yordamchi so'zlar, so'z tartibi orqali grammatik ma'no anglatish, takror, intonasiyalardan iborat.

Sintetik va analitik vositalar dunYo tillarida bir xil emas.

Sintetik tillarga turkiy tillar, fin-ugor tillari (venger, eston, fin ugor), yapon va koreys tillari kiradi.

Analitik tillarga xitoy-tibet tillari, hind-evropa tillari (ingliz, fransuz) tillari ham kiradi.

Agglyutinativ tillarda bir grammatik affiks bitta grammatik ma'no anglatadi. Flektiv tillarda ko'proq. Masalan: rus: knigu-rod, son ma'nolari.

O'zbek tilining -l, a, r ko'plik qo'shimchasi rus tilida bir necha ko'plik affiksiga to'\ri keladi: o', a, ya, i.

## Grammatik kategoriya

Har bir tilning o'ziga xos grammatik ma'nolari, uni ifoda qiluvchi vositalari mavjud. Grammatik kategoriya - umumlashgan grammatik ma'no bo'lib, u tilning qaysi morfologik tipga kirishini ko'rsatadi va o'z ifodasini so'zlarning o'zgarishida,

gapda so'zlarning bo\lanishida topadi. Zilik masalan: birlik va ko'plik. SHundan son kategoriyasi kelib chiqadi.

Grammatik kategoriyalar grammatik ma'no va grammatik formalar birikmasidan tarkib topadi.

Grammatik kategoriyalar ifodalanish usuliga ko'ra uch turga bo'linadi:

- sintetik grammatik kategoriyalar
- analitik grammatik kategoriyalar
- aralash grammatik kategoriya Yoki sintetik-analitik grammatik kategoriyalar.

Sintetik grammatik kategoriyalar: o'zbek tilida: son, kelishik, egalik, shaxs-son.

Analitik grammatik kategoriyalar: rus tili: egalik, o'zbek tilida -i, rus tilida tvoya, moya, ego, nasha, vasha, ix.

Jins kategoriyasi

Son kategoriyasi

Kelishik kategoriyasi

Zamon kategoriyasi

Demak, har bir tilning o'ziga xos grammatik ma'no turlari va ularni ifoda qilish usullari, vositalari bor. Bular har bir tilning o'ziga xos grammatik qurilishiga ega ekanini ko'rsatuvchi omillardir.

**Mavzu yuzasidan savollar:**

1. Grammatika necha qismga bo'linadi?
2. Grammatikaning qanday turlarini bilasiz?
3. Distributiv analiz metodi nima? Transformasion analiz metodi-chi ?
4. So'zning leksik va grammatik ma'nosi deganda nimani tushunsiz?
5. Grammatik ma'no hosil qiluvchi vositalar qaysilar?
6. Grammatik kategoriya nima?

## 8-ma'ruza: MORFOLOGIYA (4 SOAT)

**REJA:**

1. Morfologiya haqida tushuncha.
2. So'z turkumlari. Ularning tasnifidagi asosiy prinsiplar (tamoyillar).

***Tayanch so'zlar va iboralar:*** morfologiya, so'z turkumlari, mustaqil so'zlar, Yordamchi so'zlar, ko'makchilar, bo\lovchi, artikl, predlog, yuklamalar, so'zlarning analitik shakli, grammatik kategoriyalar, sintetik vositalar, analitik vositalar, agglyutinasiya, xususiy ma'nolar, birlik va ko'plik, sintetik grammatik kategoriyalar, analitik grammatik kategoriyalar, aralash grammatik kategoriyalar, kelishik kategoriyasi, egalik kategoriyasi, grammatik jins (rod) kategoriyasi, sintaktik vazifa, kelishik kategoriyasi, fe'l kategoriyalari, so'z turkumlari, so'z turkumlarini kategorial belgilari, strukturalistlar, so'zlar distribusiyasi, so'z tartibi, so'zlarning gapdagi o'rni, so'z turkumlarining semantik, morfologik, sintatik va so'z yasalish belgilari, so'zlarning analitik shakli, nominativ va ob'ektli kelishik, so'z nomlar.

Morfologiya grammatikaning bir qismi bo'lib, so'z turkumlari nazariyasi xaqidagi ta'limatdir. So'zlarni so'z turkumlariga ajratish nazariyasining prinsiplari quyidagilar:

1. So'z turkumlarining kategorial belgilari.
2. So'zlarni turkumlarga ajratish prinsiplari.
3. Turli tillarda so'z turkumlari.

Turkumlarga va guruhlarga ajratish doimo qiYoslash orqali amalga oshiriladi.

Tilda son-sanoqsiz so'z bor. Ularni shu holicha o'rganib bo'lmaydi. Tilshunoslik fanining rivojlanib borishi bilan so'zlarni turkumlarga ajratishi ham mukammalashib borgan.

Narsa, predmet va hodisalarni turkumlarga ajratish uchun ma'lum o'lchovlar, shartlar, mezonlarga asoslanish kerak.

Bu muammoni echish tarixini hozirgi vaqtga kelib shartli ravishda uch asosiy etapga ajratish mumkin:

1. Strukturallizmgacha bo'lgan davr
2. Strukturalizm davri
3. Strukturalizmdan keyingi, ya'ni hozirgi davr. Birinchisi uch belgiga asoslangan:

- so'zlarning leksik ma'nosi
- so'zlarning morfologik belgilari, ya'ni so'zning grammatik shakli.
- so'zlarning sintaktik vazifasi. Strukturalistlar esa so'zlarni distribusiyasini asosga oldilar. So'zning distribusiyasi deganda so'zning chap va o'ng tomondan aloqaga kirishish mumkin bo'lgan hamma imkoniyatlari nazarda tutiladi.

Amerika strukturalistlari ana shu qarashni - so'zlar distribusiyasini tavsiya qildilar. Masalan: CHarlz Frizning fikricha, ingliz tilida so'zning ma'nosini bilmasdan, bu so'zni gapda tutgan o'rniga qarab, qaysi so'z turkumiga kirishini aniq aytish mumkin. Bunda u ingliz tilidagi gaplarda so'z tartibining qat'iy ekanligiga asoslanadi.

SHu tarzda u to'rt mustaqil so'z turkumini va o'n beshta Yordamchi so'z turkumini aniqlaydi. Mana shu asosda CHarlz Friz ingliz tilida so'z turkumi so'zlarning gapda tutgan o'rniga bo\liq, degan xulosaga keladi.

Bu tavsiyaning ma'lum qiyinchiliklari mavjud:

1. U hamma tillar uchun universal bo'la olmaydi.
2. Mazmun inkor etiladi. Binobarin forma va mazmun dialektikasi buziladi.

Sobiq sovet tilshunosligi so'zlarni turkumlarga ajratishda yuqorida ko'rsatilgan prinsiplarga tanqidiy Yondashib, so'z turkumlarining kategorial belgilarini ishlab chiqdi.

Bu belgilar quyidagilar:

1. So'z turkumlarining semantik belgisi.
2. So'z turkumlarining morfologik belgisi.
3. So'z turkumlarining sintaktik belgisi.
4. So'z yasalish belgisi.

So'z turkumlarining semantik belgisi deganda, so'zlarning konkret ma'nolari emas, balki uning umumlashgan ma'nosi nazarda tutiladi. Masalan: uy, mars, yalpiz, do'stlik, quYosh. Ularning har biri garchi konkret ma'nolarni anglatsa-da, bu prinsipda umumiy ma'no, ularning predmetlik ma'nosi nazarda tutiladi. CHekmoq, o'qimoq, Yozmoq, turmoq so'zlarining konkret ma'nolari har xil. Hammasiga xos bo'lgan umumiy ma'no ish-harakatdir. So'z turkumlarining morfologik belgisi Yoki

morfologik xususiyati deganda, u Yoki bu so’zga xos bo’lgan grammatik kategoriyalar, mazkur so’zlarga xos forma yasovchi, so’z o’zgartiruvchi affiksal morfemalar tushuniladi, forma yasovchi-so’z formalarini hosil qiluvchilar -lar, fe’lda -yap: so’z o’zgartiruvchi - forma yasovchilarning sintaktik munosabat ifodalaydigan turi tushuniladi: kelishik affikslari, shasx-son affikslari. Masalan., qizil, katta, ishlamoq, etmoq, uy, daraxt so’zlarini olamiz va ularga quyidagi qo’shimchalarni qo’shib ko’ramiz:

— rol -di, -i(b)

— gan

Hamma so’z turkumlari gapda birday vazifa va miqdorda ishlatilmaydi. Otlar gapda barcha gap bo’lagi vazifasida kelishi mumkin. Sifatlarning sintaktik vazifasi chega — ralangan.

So’zlarning gapda boshqa so’zlar bilan birika olish im — koniyati ham sintaktik belgi xisoblanadi. Bunda semantik belgi asosiy rol o’ynaydi. Masalan: predmet, narsa — belgi — sifat—harakat — fe’l singari. Ana shularga qarab so’zlar turkumlarga ajratiladi.

Har bir turkumning o’ziga xos yasovchilari bor.

So’z turkumlarining yuqorida qayd etilgan kategorial bel— gilari so’z turkumlari nazariyasining asosiy prinsiplarini tashkil qiladi. Masalan: rus tilida semantik belgi bilan bir qatorda morfologik belgi ham etakchidir. Xitoy tillar oilasiga kiruvchi tillarda, masalan, xitoy, ve’tnam tillarida affikslar Yo’q. O’zbek tilida morfologik va semantik belgilardan keyin sintaktik belgilar hisobga olinadi.

So’z turkumlari nazariyasining ikkinchi prinsipi so’zlarni turkumlarga ajratish prinsipidir. Bu ham birinchi prinsipga asoslanadi. So’z turkumlari dastlab ikki mustaqil guruhga bo’linadi: mustaqil so’zlar va Yordamchi so’zlar.

Mustaqil so’zlar ma’lum tushuncha ifoda qilib, biror premet, belgi, xarakat nomini ataydi, gapda biror gap bo’lagi bo’lib keladi. YOrdamchi so’z tushuncha ifoda etmaydi, ular faqat grammatik ma’no ifoda qilib, gapda so’zning o’zaro munosabatini o’rganishga xizmat qiladi. Bularning ba’zilari so’zlarning analitik formasini hosil qiladi (Masalan: uyga qadar, ukam uchun, aytib ko’r).

Mustaqil so’zlar ichida olmoshlar bir qancha xususiyati bilan farq qiladi. Ular narsa va predmetlarni bevosita atamay, bilvosita anglatadi. Ularni odatda vazifasiga qarab turkumlaydi.

So’zlarni turkumlarga ajratishda eng avvalo so’z — nom — lar ko’zda tutiladi. Ot va fe’l asosiy so’z turkumlaridir.

Ot semantik jihatdan predmetlik tushunchasini ifoda qiladi. Morfologik jihatdan egalik, kelishik, son katego — riyalariga, kichraytirish, erkalash, xurmat kabi formalarga ega. Sintaktik jihatdan gapda ega, kesim va ikkinchi darajali bo’lak bo’lib kela oladi. So’z yasalishi jihatdan turli tip va modellarga ega. Fe’l semantik belgisiga ko’ra ish-harakat va xolatni ifoda qiladi. Morfologik jihatdan zamon, nisbat, bo’lishli-bo’lishsizlik, shaxs-son kabi grammatik kategoriyalarga ega. Sintaktik jihatdan fe’l kesim uchun eng mos turkum. So’z yasalishiga ko’ra turli so’z yasalish tiplari va modellari mavjud.

So’z —nomlarga sifat son, ravishlar ham kiradi. Bular semantik, morfologik, sintaktik so’z yasalish belgilariga ko’ra o’zaro farq qiladi.

YOrdamchi so'zlarga ko'makchi, predlog, bo\lovchi artikllar kiradi. Bulardan tashqari modal va taqlid so'zlar ham ajratiladi.

| | |
|---|---|
| ot | ko'makchi |
| sifat | predlog |
| son | bo\lovchi |
| olmosh | artikl |
| fe'l ravish | |

Turli tillarda so'z turkumlarining mavjudligi ularning universal ekanligidan dalolat beradi.

So'z turkumlari turli tillarda umumiylikdan tashqari, xar bir tilda o'ziga xos grammatik formalarga ega bo'ladi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Morfologiya qanday masalalar bilan shu\ullanadi?
2. So'z turkumlari deb nimaga aytiladi?
3. Tillarda so'z turkumlari son jihatidan bir xilmi?
4. Mustaqil so'z turkumlari deb nimaga aytiladi?
5. YOrdamchi so'z turkumlari haqida tushuncha bering.
6. Mustaqil va Yordamchi so'z turkumlari orasida qanday farq bor?

## 9-ma'ruza:
## SINTAKSIS (6 SOAT).

### REJA:

1. So'zlar o'rtasidagi grammatik aloqa va munosabat ma — salasi.
2. So'z birikmasi va gap.
3. Gapning aktual bo'linishlari.
4. Paradigma va sintagma.
5. Xulosa.

*Tayanch so'zlar va iboralar:* nutqning sintaktik strukturasi, gap bo'laklari, sintaktik munosabat, so'z birikmasi, logikgrammatik munosabat, predikativ, nopredikativ bo\lanish, gapning struktural asosi, gap komponentlari, teng bo\lanish, ergash bo\lanish, tobelanish, moslashuv, boshqaruv, bitishuv, inkorporasiya, inkorporativ komleks, affiks, suffiks, prefiks, so'z tartibi, hokimlik va tobelik, tur\un birikma, so'z birikmalari: otli, fe'lli, ravishli, sifatli, fuziya hodisasi, artikl, abstrakt ma'no, sintaktik vazifa, sintaktik birlik, gapning kommunikativ moxiyati, gapning konstruktiv — grammatik belgilari, sub'ekt, predikat, bo\lama, so'zlar bo\lamasi, gaplar: darak, so'roq, buyruq, emosional va noemosional gaplar, bo'lishli va bo'lishsiz, ikki sostavli (tarkibli) va bir sostavli, yi\iq va Yoyiq, to'liq va to'liqsiz gaplar, paradigma, gapning aktual bo'lishini, gapning formal bo'lishini, fikrning ifodalash vositalari, tinish belgilar.

### Umumiy tushuncha

Sintaksis ham morfologiya singari grammatikaning uzviy qismi hisoblanadi. Morfologiyaning o'rganish ob'ekti so'z bo'lgan bo'lsa, sintaksisning o'rganish ob'ekti so'z birikmasi va gapdir. CHunki tilning asosiy vazifasi odamlar o'rtasida fikr

almashish quroli ekan, bu aloqa gaplar orqali amalga oshadi. Demak, gap kommunikativ birlik sifatida muhim ahamiyatga ega.

Gap bo'laklari, so'z birikmalari gapning qurilishini tashkil qiladi.

SHunday qilib, sintaksisda gap bo'laklari, ularning o'zaro sintaktik munosabatga kirish usullari va vositalari, so'z birikmasi va gaplar, ularning qurilishi, tipi, gapdan katta birliklar, ularda komponentlarning logik-grammatik munosabati kabi masalalar o'rganiladi.

Ta'rifdan ma'lum bo'layaptiki, tilshunoslik taraqqiYotining hozirgi bosqichida sintaksisning o'rganish ob'ekti faqat gap deb emas, gapdan katta birliklar ham qaralmoqda. Bunda xat boshi, murakkab sintaktik butunlik (fikran, ayni vaqtda leksik, grammatik va boshqa til vositalari Yordamida o'zaro bo\langan mustaqil gaplar gruppasi), tekst matn kiritlayapti. Bu hol sintaksisning tekshirish ob'ektini yana ham kengaytiradi.

Til sintaktik qurilishining asosiy xususiyatlaridan biri—tur\unligi bo'lib, uning rivojlanishi tafakkur rivojlanishi, jamiyatning kommunikativ extiYojlarini rivojlanishi bilan chambarchas bo\liq.

Sintaksis tilshunoslikning boshqa Yo'nalishlari bilan ham aloqador. Jumladan, fonetika bilan. CHunki xar qanday til birligi, demak, gap ham nutq tovushlaridan tashkil topgan. Bundan tashqari urru, melodika va intonasiya kabi fonetik hodisalarning ham sintaksis uchun ahamiyati juda kattadir.

Morfologiya va sintaksis bir-birlarini to'ldiruvchi soxalardir. Morfologiyaning birliklari bo'lgan so'z shakllari, so'z birikmalari va gaplarda shakllanadi. Gap bo'laklari bilan so'z turkumlari orasida o'zaro yaqin munosabat mavjud.

Kelishik, son, shaxs kabi morfologik kategoriyalar, Yordamchi so'zlar sintaksis uchun xizmat qiladi.

Sintaksis leksikologiya bilan ham bo\liq. Tildagi so'zlar grammatikasi ixtiYoriga o'tib, o'zaro sintaktik munosabatga kirishib ma'lum fikr ifoda qiladi. Kishilarning fikr almashuvi uchun xizmat qiladi.

Sintaksis quyidagi qismlardan iborat:

1. Sodda gap sintaksisi.
2. Murakkablashgan gap sintaksisi.
3. +o'shma gap sintaksisi.
4. O'zga gap sintaksisi.
5. Gapdan katta birliklar sintaksisi. Sintaktik munosabat turlari.

Sintaktik munosabatlar dastlab ikki turga bo'linadi: predikativ va nopredikativ.

Predikativ bo'linish gap qurilishi asosi (grammatika markazi) komponentlari (ega va kesim)ning sintaktik munosabatidir. Bular orqali gap hosil qilinadi. Misol: Men ishga kecha chiqdim (SHaxs va sonda moslashayapti).

Nopredikativ bo\lanish xususiyatga ega emas. Teng bo\la— nish teng sintaktik munosabatda bo'lish, so'zlar, shuningdek, qo'shma gaplarning predikativ komponentlari orasidagi biri ikkinchisiga bo'ysunmagan, teng aloqasini ko'rsatuvchi muno — sabat: o'qituvchi va o'quvchi, qo'n\iroq chalindi va dars bosh — landi va ergash bo\lanish bunda biri hokim va ikkinchisi tobe bo'lgan so'zlar o'zaro aloqaga kirishadi: (Salimni ko'rdim) predikativ bo\lanishning bir turlaridir:

Tenglashish munosabati asosan, teng borlovchilar va sanash intonasiyasi orqali ifodalanadi.

Ikkinchisida esa tobe bo'lgan so'z hokim so'zni aniqlaydi, to'ldiradi va hakozo.

Tobelanish munosabatini ifodalovchi vositalar, asosan, affikslar, ko'makchilar, fleksiya, so'z tartibi va intonasiyadir.

Sintaktik munosabatining ergashish usuli uch xil: moslashuv, bitishuv, boshqaruv.

Tobe so'zning hokim so'z shakliga mos xolda bo'lishi moslashuvdir. Masalan: shaxs va sonda: SHamol maysalar orasida lola chamanlarini silkiydi. qaratqich — qaralmish: Ustozning vasiyatlariga sodiq qolamiz.

Tobe so'zning hokim so'z talab qilgan formani olish boshqa — ruvdir: Oltin o'tda bilinadi. CHoyda hikmat ko'p. Boshqaruvchi vazifasini fe'l bajaradi.

So'z birikmasining bitishuv turida xokim va tobe so'z o'zaro so'z tartibi Yoki ohang Yordamida munosabatga kiri — shadi: Keksa bo\bon, kichkina maydon, milliy tila kabi.

## So'z birikmasi

Sintaksisning asosiy o'rganish ob'ektlaridan biri so'z birikmasidir.

Predikativlik gapning grammatik ma'nosini ifoda qila — di. U gap hosil qiluvchi kategoriya bo'lib, gapda ifoda qilina— Yotgan fikrning borliqqa bo'lgan munosabatini modal planda hamda zamon va shaxs—sonda ifoda qiluvchi kategoriyadir. Mo — dallik predikativlikning tarkibiy qismi bo'lib, fe'l mayl— lari, modal so'z bilan ifoda qilinadi. Umuman, predikativlik sintaktik mayl, zamon, shaxs —son kategoriyalari, modal so'zlar va intonasiya orqali ifodalanadi.

So'z birikmalari orasidagi sintaktik munosabatlar.

Sintaktik munosabatlar grammatik vositalar orqali ifodalandi. Ular quyidagilar: affikslar, Yordamchi so'zlar, so'z tartibi va intonasiya.

Affikslar Yoki so'z formalari sintaktik aloqani ifodalashda keng qo'llaniladigan vositadir. Turkiy tillarda — suffikslar, xind —evropatillarida-fleksiya: Xoroshayapo-goda, alnerozn.

YOrdamchi so'zlar grammatik vosita sifatida barcha tillarda mavjud.

Morfologik ko'rsatkichlar bo'lmaganda so'z tartibi sintaktik munosabatlarni ko'rsatuvchi asosiy vosita rolini o'ynaydi.

Intonasiya ham sintaktik munosabat ifodalaydigan vositadir. Intonasiyani tashkil etgan komponentlar: logik ur\u, pauza, ritm, melodika turli tillarda turli darajada sintaktik vosita sifatida ishlatiladi.

## Gap paradigmasi va sintagmasi

So'zning o'zaro bo\langan shu bilan birga, bir —biriga qarama — qarshi qo'yilib, bir butun sistemani tashkil qiladigan ikki Yoki undan ortiq formalari paradigma deb yuritiladi. Bunday formalarga ot Yoki otlashgan so'zdagi son (birlik, ko'plik), kelishik, egalik: fe'llardagi zamon, mayl, shaxs — son formalari kiradi.

Boshqacha aytganda, til birliklari grammatik formalarining umumiy ma'nosiga ko'ra birlashuvi, xususiy ma'nosiga ko'ra farqlanuvchi sistemasi. Masalan., otlarning kelishik bilan turlanish paradigmasi, fe'llarning shaxs-sonda tuslanish paradigmasi kabi.

Sintagma (birlashgan narsa degani):

1. Nutqning mazmun va ritmik — melodik jihatdan bir butunlikni hosil qiluvchi semantik-sintaktik bo'lagi. Sintagma bir Yoki undan ortiq so'zdan iborat bo'lishi, xatto gapga teng bo'lishi ham mumkin: Sovxozimiz paxta planini mudatdan ilgari oshirib bajardi.

2. Ikki so'zning sintaktik bo\lanishi bilan yuzaga kela — digan nutq birligi (birikma Yoki gap).

**Gapning aktual bo'linishi**

Gapning aktual bo'linishi gapning formal bo'lshshshiga qarshi qo'yiladi. Agar formal bo'linishda gap tarkibi grammatik elementlarga bo'linsa, aktual bo'linishda gap ma'no jihatdan bo'linadi. Gapning formal bo'linishining asosiy elementlari gapning ifoda asosi, ma'lum qismi esa gapning yadrosi.

Tushunchalar orasidagi turli munosabatlarni ifoda qilish uchun grammatik jihatdan o'zaro birikkan ikki va undan ortiq so'z so'z birikmasi deyiladi.

So'z birikmasida ayrim tushunchalarni ifoda qiluvchi so'zlar o'zaro sintaktik munosabatga kirib, murakkab tushunchani bildiradi va boshqa-boshqa gap bo'lagi bo'lib keladi. Katta bino, Saodatning kitobi.

Ko'makchi so'zlar o'zi bo\langan mustaqil so'z bilan birgalikda bir bo'lak hisoblanadi: <u>Maysalar ustida</u> shudring tomchilari yarqiraydi.

**Gap**

Voqelikni va unga munosabatni ifoda qilish uchun grammatik jihatdan shakllangan, intonasion hamda mazmun jihatdan nisbiy tugalikka ega bo'lgan so'zlar bo\lanmasi Yoki yakka so'z gap deyiladi.

Gap fikrni ifoda qiluvchi nutq birligi hisoblanadi.

Uning xususiyatlari:

— so'zlarning birikuvidan tashkil topadi,

— muhim belgisi predikativlik,

— intonasion tugalikka ega,

— fikriy jihatdan nisbiy tugalikka ega.

Ifoda maqsadiga ko'ra turlari: darak, so'roq, buyruq. Bulardan tashqari undov gap ham bor. Tuzilishiga ko'ra: sodda va qo'shma. Sodad gap: bir tarkibli, ikki tarkibli.

Bir tarkibli: egasiz bir tarkibli, kesimsiz bir tarkibli gap. Egasiz bir tarkibli gap: gap egasi ma'lum (topilar) gap, egasi topilmas gap.

Egasi topilar gap: shaxsi aniq gap, shaxsi noaniq gap, shaxsi umumlashgan gap. Bulardan tashqari nominativ gap ham bor.

Ikki tarkibli gap: ega va kesimi mavjud.

Gapning ikkinchi darajali bo'laklar: aniqlovchi, to'ldiruvchi, xol.

Xullas, gap xar qanday tilda ham kommunikativ moxiyatga ega bo'lgan asosiy birlik sanaladi.

SHu paytga qadar gapga 300 dan ortiq ta'rif berilgan. Uning grammatik jihati, logik jihati bor. Psixologizm oqimi, formalistlar oqimlari, qarashlari mavjud.

Gap atamasi ikki ma'nolidir. Birinchi ma'nosi til birligi aloqa uchun xizmat qilishga qaratilgan konstruktiv birlikdir. Bu gap modeli, gap formulasi deb yuritiladi. Ikkinchi ma'nosi konkret xabar konkret kontekst bilan bo\liq bo'lgani nutq biriligidir.

Gap qurilish modeli bilan ifoda mazmunining birligi gapning asosiy kommunikativ xususiyati xisoblanadi.

SHunday qilib, ob’ektiv borliq va unga bo’lgan munosabatni ifoda qilib, grammatik shakllanib, nisbiy tutal fikr Yoki xis-tuy\u anglatib, intonasion butunlikka ega bo’lgan so’z hamda so’zlar birlashmasi gap deyiladi.

YA’ni, nima xabar qilaYotgan qismi hisoblanadi. Bunda fikr ma’lumdan noma’lumga qarab harakat qiladi.

Boshqacha aytganda, gapning konkret ma’nodagi mundarijasidan kelib chiqib mazmun jihatdan bo’linishi. Bunday bo’linishda gap ikki qismdan iborat bo’ladi: 1. So’zlovchi va tinglovchi (o’quvchi) uchun ma’lum narsani ifodalovchi qism (tema): 2. So’zlovchi bildirmoqchi, aytmoqchi bo’lgan qism, ya’ni yangi informasiya qismi (rema): Jamoa xo’jaligining bu yilgi rejalari yana ham katta. Tema: Jamoa xo’jaligining bu yilgi rejalari, rema: yana ham katta.

Gapning aktual bo’linishida gap ifoda asosi va ifoda yadrolariga bo’linadi: Institut studentlari (ifoda asosi) sport musobaqalarida \olib chiqdilar (ifoda yadrosi).

Gapning hamma tiplari ham aktual bo’laklarga bo’lina — vermaydi. Odatda bo’laklarga ajralmaydigan gaplar, nominativ gaplar, to’siqsiz gapning ba’zi tiplari aktual bo’laklarga bo’linmaydi.

YOzuvda gapning aktual bo’linishi tinish belgilari bilan ajratilmaydi.

O\zaki nutqning aktual bo’linishida intonasiya asosiy vositadir.

**Mavzu yuzasidan savollar:**

1. Sintaksis qanday masalalar bilan shu\ullanadi?
2. So’z birikmasi nima?
3. Teng va tobe aloqa nima?
4. Gap deb qanday til birligiga aytiladi?
5. Gapning ifoda maqsadiga ko’ra turlari qaysilar?
6. Gapning tuzilishiga ko’ra turlari.
7. Bir tarkibli gaplarning turlari.
8. Gapning aktual bo’linishi.

## 10-ma’ruza:
## YOZUV (4 SOAT)

**REJA:**

1. Yozuvning tarixiy ahamiyati.
2. Yozuvning paydo bo’lishi. O’zbek Yozuvi tarixidan qisqacha ma’lumot:

a) piktografiya Yozuv,
b) ieroglifik Yozuvlar,
v) fonografik Yozuvlar,
g) o’zbek Yozuvining taraqqiYot bosqichlari.

3. Hozirgi o’zbek grafikasi:

-kirillisa (rus grafikasi)ga asoslangan o’zbek Yozuvi: —lotin grafikasiga asoslangan o’zbek Yozuvi.

4. Xulosa.

***Tayanch so’zlar va iboralari:*** Simvollashtirish, simvolik Yozuv, pikrografik Yozuv, pikrogramma, ideografik Yozuv, logografik Yozuv, logogramma, ieroglifik

Yozuv, mix xatlar, fonografik Yozuv, sillabik va bo'\in Yozuvi, devanagari Yozuvi, sillabogramma, diakretik belgilar: konsonant Yozuv, xarf, xarf — tovush Yozuvi, alfavit, oromiy Yozuvi, eron Yozuvi, arab Yozuvi, grek Yozuvi, lotin Yozuvi, kirillisa — rus grafikasi, grafika, grafik forma (shakl), orfografiya, fonetik prinsip, tarixiy va tradision (an'anaviy) prinsip, fonematik va fonologik prinsip, simvolik prinsip, stenografiya.

## Yozuvningtarixiy ahamiyati

Yozuv jamiyatning eng buyuk kashfiYotlaridan biri bo'lib, kishilik jamiyatining har tomonlama taraqqiYotida juda katta rol o'ynaydi. Yozuvning xabar etkazish imkoniyati tu — fayli turli masofadagi—dunYoning turli nuqtasida paydo bo'lgan yirik siYosiy, ilmiy texnikaviy va adabiy voqealar barcha xalqlarning mulkiga aylandi.

Agar Yozuv bo'lmaganda, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan yuksak madaniyat namunalari bizgacha etib kelmagan bo'lar edi. Xullas, harf Yozuvi asosida paydo bo'lgan ilmiy simvolika tafakkur taraqqiYotini tezlashtirishda, fikrlash, o'ylash va isbotlashning yanada yuqori darajaga ko'tarilishida muhim rol o'ynadi va o'ynamoqda.

Tildagi uzoq yillar mobaynida yuz bergan fonetik, grammatik yaruslardagi o'zgarishlardan faqat Yozuv tufayligina xabardormiz. Faqat Yozuvgina til evolyusiyasi to'rrisidagi tasavvurimizni jonlantira olishi mumkin.

Agar Yozuv bo'lmaganda, Maxmud qosh\ariy, YUsuf xos Hojib, Axmad YUgnakiy, Lutfiy, Alisher Navoiy singari buyuk siymolarning donishmandona fikrlaridan baxramand bo'la olmas edik.

YOzuvning yutu\i: tilda bo'lmagan imkoniyatlar Yozuvda yuzaga chiqadi. Ammo u tilning to'liq aksi emas, balki shartli va sun'iy aksidir.

YOzuv tilga nisbatan kam o'zgarib, uning vazifasi ham bir muncha chegaralangandir. Jamiyatning kelgusi taraqqiYotida radio va televizion aloqa vositalari kabi Yozuvdan ustunroq bo'lgan yangi vositalar ham yuzaga kelishi mumkin.

YOzuv o'z—o'zidan paydo bo'lmay, balki ma'lum bir ehtiYoj va zarurat asosida fikrni uzoq masofaga etkazish Yoki keyingi avlodldrga qoldirish talabi bilan yaratilgan. Uning o'ziga xos xarakterli belgilari bor:

1. YOzuv mustaqil va asosiy aloqa vositasi bo'lolmaydi, Yordamchi vosita hisoblanadi.
2. Nutqni uzoq masofaga etkazish va keyingi davrlarga qoldirish uchun xizmat qiladi. Grafik belgilar Yozuvning asosiy qurolidir.

Demak, Yozuv ko'z bilan ko'radigan va kishilar o'rtasida o'ziga xos aloqa vositasi bo'lib xizmat qiladigan grafik belgilar sistemasi bo'lib, uning jamiyatda o'ziga xos katta o'rni va xizmati bor, ya'ni Yozuv ma'lum bir masofa bilan ajralgan odamlar orasidagi aloqalarni yaxshilashda, Yozma adabiYotlarni va Yozma adabiy tilni yuzaga keltirishda, ma'lum bir davrda yaratilgan madaniy — adabiy Yodgorliklarni keyingi davrlarga etkazib berishda nixoyat darajada muhim rol o'ynaydi.

## Yozuvning paydo bo'lishi

Yozuvning paydo bo'lishi til qadar uzoq tarixga ega emas. Ba'zi tillarning hozirgacha Yozuvi Yo'q. Masalan., Amerika qit'asidagi ayrim maxalliy axoli.

Yozuv extiYoj tufayli paydo bo’ladi. Boshlan\ich davrlarda xotirada saqlab qolish vositasi tabiat predmetlari bo’lgan. Predmetlar simvolikasi shunday vazifani bajargan. Masalan, qarama — qarshi qabila vakillarining navbatma — navbat trubka chekishi tinchlik simvoli bo’lgan. Slavyan qabilalarida ilgari va xozir ham mehmonni non va tuz bilan kutib olish do’stlik va hurmat belgisidir.

O’tmishda, hozirgi zamon Yozuvlari bo’lmagan davrlarda, odam— lar ba’zi hodisalar va voqealarni uzoq masofaga etkazish niyatini Yoki zamonda (vaqtda) abadiylashtirish maqsadalarini jonli va jonsiz narsalarning rasmini chizish orqali amalga oshirganlar. Bunday Yozuv **piktografik** Yozuv deb nom olgan.

Jamiyat taraqqiYotida piktografik Yozuv mukammallasha borib ideografik Yozuv paydo bo’ldi. Uni logografik Yozuv deb ham atashadi.

Logogrammaning piktogrammadan farqi shundaki, piktogramma bevosita predmetni aks ettiradi, logogramma so’zning ma’nosini izoxlaydi.

Demak, logogramma bevosita predmet shakli bo’lmay, u so’z ma’nosini aks ettiruvchi shartli belgidir.

Logografik (so’z Yozaman) bir oz mukammallashgan formasi ieroglifik Yozuvdir (muqaddas Yozuv). Xitoy tilining to’liq lu\atlarida qirq mingga yaqin ierogliflar qayd qilingan. Hozirgi zamon tekstlarida esa 2 — 5 ming atrofida ierogliflar qo’llanadi.

YOzuvning ommaviylashuvi uchun uni, albatta, osonlashtirish, soddalashtirish va qulaylashtirish kerak bo’ladi.

YOzuvning soddalashishi jaraYoni bir necha Yo’llar bilan amalga osha boshladi:

1. YAngi tushunchalarni mavjud logogrammalar Yoki ierogliflar kombinasiyasi orqali ifodalash. Masalan, Xitoy Yozuvida: ko’z Yoshi tushunchasi — ko’z va suv ramzi ifodasi. Unumsiz rivojlandi.

2. Logogrammalarni o’zak sifatida qoldirib, grammatik ma’nolar uchun yangi logogrammalar o’ylab topish.

3. Fonografik Yozuvga o’tish.

**Fonografik Yozuv**

Piktogramma, sillabogramma (bo’\in Yozuv) va ideogrammalar (shartli belgi, simvol) evolyusiyasi natijasida harflar paydo bo’ladi, Yozuv taraqqiYotida harf — Yozuv davri boshlandi. Hozirgi vaqtda jahon axolisining taxminan to’rtdan uch qismi mana shu Yozuvdan foydalanadi.

Harf —tovush Yozuvi hozirgi vaqtda, asosan, yirik to’rt xil Yozuv sistemasidan iborat. Lotin alifbosi asosidagi Yozuvdan jaxon axolisining 30% slavyan — krillisa Yozuvidan 10%, arab Yozuvidan 10% xind Yozuvidan 20%, xitoy Yozuvidan 25% axoli foydalanadi.

O’zbek Yozuvining taraqqiYot bosqichlari.

YOzbek xalqi qadimda turli Yozuv sistemasidan foydalanib kelgan. Asosiy Yozuv sistemasini fonografik, ya’ni tovush Yozuvi, xarfiy Yozuv Yoki alfavit tashkil etgan. O’zbek xalqi oromiy, yunon, su\d, xorazm, ko’shon, eftalit, paxlaviy, suriya, xind, urxun (runik), uy\ur, arab, lotin, rus grafikasiga asoslangan Yozuvdan foydalangan.

Eramizdan oldingi VI — IV -klinopis (mix Yozuv), oromiy Yozuvi 111 — 1 yunon, karoshta Eramizning I asridan su\d VI I — III xorazm V—VIII urxun —runik (rus olimi. Remezov —XVIII, shved Iogann Stralenberg, XIX asr Grigoryan Spaskiy,

1891 akad. V.V.Radlov, daniyalik Vilgilm Tomsen, keyinchalik P.M.Me — lioranskiy, S.E.Malovlar ushbu Yozuvni o'qiganlar.

VI-VIII asrlar uy\ur, VII-VIII arab, 1929 lotin, 1940 rus, 1993 02.09. lotin (26 xarf, 3 harflar birikmasi va 1 tutuq belgi).

Rus grafikasi asosidagi o'zbek alfavitida 33 ta harf va ikkita maxsus belgi bor. Ularning yutuq va kamchiliklari. Unililar sistemasi. Singormanizm. YAngi alfavit. Uning siYosiy ahamiyati.

**Mavzu yuzasidan savollar:**

1. YOzuvning kishilik jamiyatidagi roli nimadan iborat?
2. YOzuvning qanday bosqichlarini bilasiz?
3. qanday Yozuv piktografik Yozuv deyiladi?
4. Ideografik va ieroglifik (muqadads) Yozuv nima?
5. Fonografik Yozuv deb nimaga aytiladi ?
6. O'zbek Yozuvining taraqqiYot bosqichlari.

## 11-ma'ruza.
## TILLARNING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI

**REJA:**

1. Tilning paydo bo'lishi haqida turli nazariyalar va oqimlar.
2. Tilllarning taraqqiYot jaraYoni.
3. qabila, xalq va milliy til.
4. Xulosa.

***Tayanch so'zlar va iboralar:*** taqlidiy ovoz nazariyasi, undov nazariyasi, mehnat qiyqiriqlari nazariyasi, ijtimoiy ke — lishuv nazariyasi, tovushlar kompleksi inventari, so'z shak — llarining differensiasiyasi, dunYo tillari, areal tasnif, tipologik tasnif, geneologik tasnif, funksiyaonal tasnif, qabila tili, elat tili, milliy til, nominativ sintaktik tip, ergativ sintaktik tip, tillarning qarindoshlik muno — sabati, sanskrit tili, tillarni qiYosiy o'rganish.

Tillarning paydo bo'lishi xaqida turli nazariyalar.

Tillaraning paydo bo'lishi masalasi—til qachon va qaerda paydo bo'lgan, dastlab nechta til bo'lgan, u Yoki bu tillar qanday bo'lgan va shu kabi rejaga xos ilmiy asoslangan mukammal javob topilgan emas. Bu xususda ilmiy taxminlar mavjud xolos. Ba'zi olimlarning fikricha, til taxminan besh yuz ming yillar ilgari paydo bo'lgan.

Til taraqqiYotining Yozuv paydo bo'lishidan avvalgi holati biz uchun qoron\u.

Tilning paydo bo'lishi, bir tomondan kishilik organizmining evolyusiyasi bilan, ikkinchi tomondan, ibtidoiy jamoaning jamiyatga aylanuvi bilan bo\liq bo'lgan.

Kishilar hamma ijtimoiy davrlarda til qanday paydo bo'lgan, degan masala ustida bosh qotirganlar. Masalan, qadimgi yunon faylasuflari.

Demokrit (460 — 370) tilda nom bilan narsa orasida xech qanday bo\lanish Yo'q. Demak, til inson tomonidan yaratilgan. Bu guruh olimlar anamolistlar deb nom olgan.

Platon (427 — 347) narsa bilan uning nomi orasida muayyan bo\lanish bor. Bu bo\lanish iloxiy kuch tomonidan o'rnatilgan. Bu olim anologistlar deb nom olgan.

Hozirgi tilshunoslik ham birinchi nuqtai nazar tarafida. U ijtimoiy mehnat maxsuli. SHuning uchun ham 7000 dan ortiq til bor.

Tilning paydo bo'lishi xaqida bir necha nazariyalar mavjud. Ularning asosiylari:

1. Tovushga taqlid. Bu nazariya qadimgi YUnonistonda — Demokrit va Platon davrida o'rtaga tashlangan. Masalan: kukushka, gavkat, shipet (shpenie), qar\a, sharshara, kaklik, chumchuq, miYov, miYovlamoq kabi. Ammo bunday so'zlar tilda juda ozchilikni tashkil qiladi. Tovush chiqarmaydigan narsalarga nom qaerdan olib qo'yilgan? Xullas, bu nazariya tilning paydo bo'lishi masalasini hal qilolmaydi.

2. Undov nazariyasi. Keng tarqalgan ikkinchi nazariya. Uning asosida ham hayvonlarning baqirriq — chaqiriqlari Yotadi. Bu qarash asoschilarining fikricha, ibtidoiy xayvonlar odamlarning baqirriq—chaqiriqlarini o'rganib, ular orqali o'z—o'zlarining ichki kechinmalari, ham alamlarini ham ifodalashgan. Ox, ux kabi so'zlar bunga misol qilib ko'rsatilgan: Tildagi boshqa so'zlar esa, ana shunday so'z — larning birikuvidan kelib chiqqan, deb tushuntiriladi. Misol: oxat, uxat, uflamoq, uf tortmoq, oh — voy.

Ammo mazkur nazariyani qabul qilish tilning asosiy va — zifasini — uning ijtimoiy hodisa ekanligini rad etishga olib keladi.

Mexnat qiyqiriqlari nazariyasi

Bu nazariya XIX asrning 70 — yillarida fransuz filosufi L.Nuare yaratdi. Nemis olimi Karl Byuxer ham bu fikrni quvvatladi.

To'\ri, turli qiyqiriqlar va hayqiriqlar jamoa mexnat faoliyatini engillashtiradi, uni tartibga soladi. Bunday qiyqiriqlar dastlab beixtiYor, bexosdan aytilgan bo'lsa ham, keyinchalik ularning ba'zilari mexnat simvoliga aylangan. Lekin bunday mexnat qiyqiriqlari birinchi nutq elementlari bo'lgan deyish ma'qul emas. Bu nazariya undov nazariyasiga o'xshab ketadi.

Ijtimoiy kelishuv nazariyasi. Bu farazga ko'ra olimlar narsalarni qanday atashni o'zaro kelishib olishgan. Ammo kelishib olish uchun ham til kerak. Demak, u tilning paydo bo'lish qonuniyatlarini to'\ri ko'rsatib bera olmasligi shundan ham ma'lum.

YAna bir nazariya vakillarining fikricha, kishilar jamoa bo'lib yashashlari natijasida uyushgan guruhlar shu darajaga etdilarki, ularda bir—birlariga nimadir aytish ehtiYoji tu\ildi. Bu ehtiYoj o'ziga kerakli organni tu\dirdi.

Til—mexnat jaraYonida va mexnat bilan birgalikda taraqqiy qilgan. Xullas, odamni ham, tilni ham mexnat yaratgan.

Tillarning ta^iYoti jaraYoni. Dastlabki til—juda sodda va kamba\al bo'lgan. U intonasiya va imo—ishora bilan qo'shilgan holdagi tovush gaplardan iborat edi. Tovushlar kompleksi asosiy til birligi hisoblangan. Tovushlar kompleksi inventari ham ko'p bo'lmagan. SHuning uchun ham har bir so'z turli sharoitda turli ma'no ifoda qilgan. Bunday so'zlarni takrorlash, qo'shish, so'z formasi yasashning asosiy usuli bo'lgan.

So'z turkumlarining shakllana borishi va ularning sin — taktik xususiyatlarga ega bo'lish bilan so'z formalarining differensiyasi boshlanadi. SHunday qilib, leksik—grammatik kategoriyalar hamda tilning grammatik qurilishi yuzaga keldi, tilning lu\at tarkibi mukammallasha bordi.

**+abila, xalq va milliy tillar**

Kishilar ibtidoiy jamiyatning dastlabki davrlaridaYoq to'da—to'da bo'lib yashaganlar. Bular uruk deb nom olgan. Keyinchalik turli sabablarga ko'ra uru\lar bo'linib ketdi: qarindosh uru\lar bo'ldi. Bir necha qarindosh—uru\lar qabilani tashkil etadi. Bunday uyushmalarning o'z tili, aloqa vositasi shakllana boshladi. qabilaning ayrim, o'ziga xos dialekti (shevasi) bor. Haqiqatda qabila demak—dialekt demakdir.

+ardosh qabilalar ittifoqi vaqti kelib xalqni tashkil qiladi. Kishilik jamiyati bu uyushmasining asosiy xususiyati: umumiy til, umumiy xudud, madaniyat va ma'naviy taxlitning umumiyligidir.

SHevalar milliy tillar uru\chilik davridan boshlab son jihatdan ko'payib boradi. Avval bir qabila itgifoqiga kirgan tillarda markazdan uzoqlashgan sari, shevaga xos farq orta boradi va oxirgi natijada bu farq yangi til paydo bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin: son jihatdan o'zgarish sifat o'zgarishiga olib keladi. «Xalq emas, territoriya bo'lingan».

YAngi — yangi dialekt va tillarning paydo bo'lishida ikki omil xal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi: vaqt va masofa. Vaqt o'tgan sayin masofaning kengaya borishi yangi dialekt va tillarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Dialektlar sonining ko'payishi ular asosida yangi—yangi tillarning vujudga kelishi til taraqqiYotining differensiasiya jaraYonini tashkil qiladi (differensiasiya — farqlanish).

Tilning shevadan farqi.

Jamiyatning muayyan tarixiy sharoitida xalqlar taraqqiy qilib, millat bo'ladi.

Millatlarning asosiy belgilari: umumiy xudud, umumiy til, umumiy madaniyat va ma'naviy birlik.

Til rivoji jamiyat rivoji bilan uzviy bo\langan.

Tillarning chatishuvi masalasi. Tillarning taraqqiYotiga qo'shni xalqlar orasidagi turli munosabatlar — savdo sotiq va madaniy aloqalar, urushlar o'z ta'sirini ko'rsatadi. Tillar hamkorligida tillar chatishuviga katta ahamiyat beriladi. Lekin har qanday hamkorlik ham tillar chatishuviga kirmaydi. Masalan, bir tildan ikkinchi bir tilga so'z o'zlashtirilishi tillar chatishuviga kirmaydi, chunki o'zlashtirilgan so'zlar tilning grammatik qurilishiga o'z ta'sirini o'tkazmaydi: arab tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan so'zlar kabi.

Fransiyaning XIX asrda britaniya orolini bosib olishi va fransuz tili bilan anglosakson tillari orasidagi aloqa chatishuvga eng yaxshi misoldir. \oliblar o'z tilini Yo'qotib, anglosaksonlar tilini qabul qilishga to'kri keldi.

CHatishuv jaraYonida ikki hodisa yuz beradi: substrat va superstrat.

Substrat yuz berganda kelgindilar tili maxalliy tilni siqib chiqaradi va ishlatilishdan chiqib ketadigan til kelgindilar tiliga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Superstrat hodisasi esa kelgindilar tili maxalliy til bilan kurashib, unga sezilarli darajada ta'sir o'tkazadi, uni siqib chiqarmaydi. Bunga Britaniya orolining normanlar tomonidan bosib olinishi va norman tilining ingliz tiliga ta'siri misol bo'ladi.

YAna bir xulosa: tilda inqilob bo'lmaydi, o'zgarishlar evolyusion Yo'l bilan amalga oshadi. Tur\unlik ham bo'l — maydi, udoimo rivojlanishdadir.

**Milliy tillarning shakllanishi va taraqqiYoti.** Millat va milliy tillarning paydo bo'lishi turli xalqlarda turlicha va turli vaqtda sodir bo'ladi.

Milliy tillar uch Yo'l bilan paydo bo'lishi mumkin:

1. Biror bir shevaga milliy til maqomini berish.
2. CHatishish Yo'li bilan. Misol yuqorida keltirilgan.
3. SHevalarning mujassamlashtiriluvi orqali milliy tilning hosil bo'lishi. Misol: rus va o'zbek tillari.

O'zbektiliga qorliq, qipchoq—uy\ur, o'riz tayanch shevalari (dialektlar) asos bo'lgan.

Milliy tillarning shakillanishida badiiy so'z ustala — ri, Yozuvchi va shoirlarning hissalari ham katta bo'ladi.

**Mavzu yuzasidan savollar:**

1. Tilning paydo bo'lishi haqida qanday nazariyalarni bilasiz?
2. Tovushga taqlid, undov, mexnat chaqirriqlari va ij — timoiy kelishuv nazariyalarining qanday ijobiy va salbiy tomonlari bor?
3. qabila va ur\u tillarining shakllanishini tushun — tirib bering?
4. Milliy tillarning shakllanishi qanday Yo'llar bi — lan amalga oshadi?
5. Substrat va superstrat hodisalar nima?

## 12-ma'ruza. TILLARNING TASNIFI
## (6 SOAT)

**REJA:**

1. Tillarning geneologik va morfologik tasnifi.
2  Analitik va sintaktik tuzumdagi tillar haqida ma'lumot.

***Tayanch so'zlar va iboralar:*** affiksli tillar, flektiv tillar, agglyutinativ tillar, polisintetik tillar, tillar — ning tipologik tasnifi, sof analitik tillar, sintetik til, sheva, dialekt, differensiasiya, invariant vosita, xalq tili, Yozma adabiy til, milliy tillar, integrasiya, tillar hamkorligi, tillar chatishuvi, substrat va superstrat hodisa, milliy til, kam tarqalgan tillar, ko'p tarqalgan tillar, tillarning tarqalishi, millatlararo aloqa tili, xalqaro aloqa tili, jaxon tillari, xalqaro til.

Tilshunoslikka oid adabiYotlarda 7500ga yaqin til borligi qayd qilingan. (Ayrim adabiYotlarda ularning soni 5000 gacha deb ko'rsatilmoqda). Ayrim shevalar ham qo'shilsa, bu son nihoyat darajada oshib ketishi mumkin.

Sobiq ittifoqda— 130
Hindistonda — 720 til va sheva.
Indoneziyada- 180-200
Fillipinda—80
Janubiy Gveniyada — 400

Bu tillar funksional jihatdan ham teng emas.

Birida bir qabila gaplashsa, ikkinchisi xalq tili hisoblanadi. Ba'zi tillar Yo'q bo'lib ketgan (Amerikadagi xindu qabilalari tr!llari). O'lik til—iste'moldan chiqqan, Yozma Yodgorliklarda saqlanib qolgan til. Masalan: lotin tili.

Tilshunoslikda tillarning bir necha tasnifi mavjud: areal (geografiya), tipologiya, genelogiya, funksional tasnif.

Areal tasnifda jaxon tillarining xaritasi, turli mamlakatlarning til tomonida xarakteristikasi, ayrim tillarning qo'llanish doirasining kengayishi kabi masalalar o'z ifodasini topadi.

Tillarning funksional tasnifi quyidagi belgilarga asoslanadi:

1) tilning o'zi tegishli bo'lgan xalq tarixi bilan aloqasi:
2) tilning jamiyatdagi vazifasi.

Tillarning xalq tarixi bilan aloqasiga ko'ra, asosan, uch tipga ajraladi: qabila tili, elat tili, milliy til.

Tillarning ijtimoiy vazifasining kengayishi ularning funksional differensiasiyalashuviga olib keladi. Natijada turli nutq stillari shakllanib boradi. Rivojlangan xozirgi tillarning ko'pchiligida badiiy, ilmiy, publisistik, rasmiy—idoraviy, so'zlashuv kabi uslublarda shakllangan.

Tillarning tipologik tasnifida tillarning grammatik qurilishi asosga olinib, ularning asosiy tiplari belgilanadi. Unda tillarning morfologik va sintaktik tipologiyasi farqlanadi.

Morfologik tipologiyada ko'proq so'zlarning o'zgarishi asosga olinadi. Tillarning morfologik tasnifi so'z quri — lishida o'zak va affikslarini o'zaro qarama — qarshi qo'y—ishga asoslanadi. Bu tasnif tilshunoslikda keng tarqalgan.

Sintaktik tipologik gap va so'z birikmalarida ifoda qilinadigan logik—semantik munosabatlarning universalligiga suyanadi, bunda kesim formasi, sintaktik aloqa, gapdagi logik semantik munosabatlar hisobga olinadi. Kesim formasiga ko'ra gaplar ot va fe'l gaplarga ajratiladi.

Tillarning sintaktik tasnifida sub'ekt—predikat, ob'ekt—atribut munosabatlarini ifodalanishiga asoslangan tasnif keng tarqalgan. Bu jihatdan I.I.Meshchaninov uch sin — taktik tipni ajratadi: posessiv, nominativ, ergativ. Bunda ega nima bilan ifodalanishi hisobga olinadi. Posessiv — egalik, qarshililik munosabatini ifoda qiluvchi maxsus sintaktik konstruksiya (qurilma). Nominativ — ega bosh kelishikdagi so'zlar bilan ifodalanishi. Ergativ kelishik kavkaz tillariga xos.

Tillarning geneologik tasnifi til faktlarini tarixiy prinsip asosida o'rganib, tillarning qarindoshlik munosabatlarini aniqlaydi.

### Tillarning genelogik tasnifi

Eng ko'p tarqalgan tillar oilasi xind—evropa tillari oilasi sanaladi.

1. Hind tillari gruppasi. Jonli tillar: hind, urdu, bengal, panjob, maraxti, singal, nepal, bixar, oriy, assam, kashmir, lo'lilar tili. O'lik tillar: sanskrit, lotin tili.
2. Eron tillari gruppasi: fors, pushtu, tojik, kurd, osetin, su\diylar tili, pomir tili. Pomir tillari, skif, pax — laviy, xorazmiy, qadimgi fors, parfiyan tillari o'lik til— lar hisoblanadi.
3. Slavyan tillari gruppasi: sharqiy, janubiy, \arbiy (uch tarmoqqa bo'linadi).

a) sharqiy: rus, ukrain, belorus;

b) janubiy: bolgar, makedon, serb —xorvat, slavyan tili;

v) chex, slovak, polyak, kashub, sorab.

4. Boltiq tili gruppasi: litva, latviya.
5. German tili gruppasi: shimoliy, \arbiy, sharqiy (tar — moqqa bo'linadi):

a) shimoliy: daniya, shved, norveg, island;

b) ingliz: golland, fris, nemis;

v) vestgot, ostgot (o'lik tillar).

6. Roman tili gruppasi: fransuz, italyan, ispan, portugal, rumin, moldovan, lotin.
7. Kelt tili gruppasi: irland, shotland (o'lik).
8. Grek tillari gruppasi: grek.
9. Alban tili. YU.Armantili.

11. SHarqiy som tili ham uch ko'rinishga ega: 1). SHarqiy som tili: akkad; 2). SHimoliy som tili: xannan, oromiy; 3). Janubiy som tili: arab va axmar tili. Xom tili gruppasiga misr tili, kot tili, beroer va kushit tili kiradi.

**Kavkaz tili oilasi**

1. \arbiy gruppa: abxaz, kabardin, cherkas, adigey.
2. Nax tili gruppasi: chechen, ingush, basbiy.
3. Do\iston tillari: gruppasi: avar, darrin, lezgin, lak, tabasarin (bularning Yozuvi bor) va andiy, karatin, tindin, chamolin, bagaul, axvax, butlix, gadobern, sez, betedin (Yozuvi Yo'q)tillari.
4. Janubiy Yoki kartvel tillari gruppasi: gruzin, zan, svan.

**Ugor-fin tillari oilasi**

1. Ugor tillari gruppasi: venger (mojor) tili, mansay tili va xantay tili.
2. Fin tillari gruppasi: fin, sam, eston, karel, komi, udmurt, mariy, morden.

Samodik tillari gruppasi: nenes, enes, selkum.

**Tungus-manjur tillari oilasi**

1. Tungus tillari gruppasi: evenk, even.
2. Manjur tillari gruppasi: manjur, nanay, udey, ulg, orog (SHarqiy Sibir, Saxalin, CHukotka)

**Xitoy-tibet tillari oilasi**

1. Tay—xitoy tillari gruppasi: xitoy, dungan, vetnam, tay, laos.
2. Tibet —birma tillari gruppasi: tibet, birma

**Dravid tillari oilasi**

Tamil, malalayam, telugu, kannar, tilu, barxun, gondi. Malay-polineziya tillari oilasi

Indoneziya tillari: malay, yava, dayak, tagal, batak, age, abil madur, torigi, bu\iy.

IX. Avstaliya tillari oilasi: asosiysi aranta.

X. Papaus tillari oilasi.

YAngi Gveniyadagi 4000 ga yaqin til papaus tillari deb ataladi.

**Afrika tillari oilasi**

1. Bantu tillari gruppasi: bube, lundu, fang, kongo, rundi, ganda, poto, igala, luba, bembe, subiyya, suaxili, sanga, sham — bala, zulu, soto, venta, lunda.
2. Sudan tillari gruppasi: zanda, banda, koma, kunama, kardofan, miltu.

**PaleosiYo tillari oilasi**

1. CHukot tillari gruppasi: chukot, koryak.
2. Sibir gruppasi: odul, nivx.

**Eskimos tillari oilasi**

